46.	Patologik anatomiya	Respublika patologik anatomiya markazi	1. Patologoanatom 2. Toksikolog 3. Morfolog 4. Citolog 5. Gistolog 6. Mikrobiolog 7. Molekulyar biolog 8. Genetik 9. Oilaviy shifokor 10. Sud-tibbiyot ekspertizasi xodimi	1. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMlari (Sud tibbiyoti yo‘nalishi kafedralari); 2. Shu yo‘nalishda faoliyat yuritadigan xususiy klinikalar; 3. Patologik anatomiya yo‘nalishi bo‘yicha Assotsiatsiyalar; 4. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin

T/r	Tibbiyot yo‘nalishlari ro‘yxati	Ishlab chiqish uchun mas‘ul tashkilot	Multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhida bo‘lishi kerak bo‘lgan mutaxassislar ro‘yxati	Tashkiliy masalalar va multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhlariga jalb qilinadigan tashkilotlar ro‘yxati
			11. Nozologiyalardan kelib chiqib boshqa tor soxa mutaxassislari jalb qilinadi	
47.	Immunologiya	Immunologiya va inson genomikasi instituti	1. Immunolog 2. Gematolog 3. Onkogematolog 4. Infeksionist 5. Allergolog 6. Pediatr 7. Terapevt 8. Funktsional tashxislash bo‘yicha mutaxassis 9. Nozologiyalardan kelib chiqib boshqa tor soxa mutaxassislari jalb qilinadi	1. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMlari (Klinik immunologiya yo‘nalishi kafedralari); 2. Shu yo‘nalishda faoliyat yuritadigan xususiy klinikalar; 3. Immunologiya yo‘nalishi bo‘yicha Assotsiatsiyalar; 4. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin
48.	Sud-tibbiy ekspertiza	Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi	1. Sud-tibbiyot ekspertizasi xodimi 2. Kriminalist 3. Sud-tibbiyot psixiatri 4. Patologoanatom 5. Toksikolog 6. Sitolog 7. Gistolog 8. Mikrobiolog 9. Molekulyar biolog 10. Genetik 11. Nozologiyalardan kelib chiqib boshqa tor soxa mutaxassislari jalb qilinadi	1. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMlari (Sud tibbiyoti yo‘nalishi kafedralari); 2. Shu yo‘nalishda faoliyat yuritadigan xususiy klinikalar; 3. Sud-tibbiy ekspertiza yo‘nalishi bo‘yicha Assotsiatsiyalar; 4. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin
49.	Hamshiralik ishi	1. Tibbiyot hodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi 2. Respublika Hamshiralik Assotsiatsiyasi 3. Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini malakasini oshirish markazi	1. Oliy ma‘lumotli hamshira 2. Oilaviy shifokor 3. Nutritsiolog 4. Diyetolog 5. Pediatr 6. Terapevt 7. Funktsional tashxislash bo‘yicha mutaxassis 8. Nozologiyalardan kelib chiqib boshqa tor soxa mutaxassislari jalb qilinadi	1. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMlari (Hamshiralik ishi yo‘nalishi kafedralari); 2. Shu yo‘nalishda faoliyat yuritadigan xususiy klinikalar; 3. Hamshiralik ishi yo‘nalishi bo‘yicha Assotsiatsiyalar; 4. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin
50.	Sport tibbiyoti	1. Toshkent tibbiyot akademiyasi 2. Tibbiyot hodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	1. Sport tibbiyoti mutaxassisi 2. Travmatolog-ortoped 3. Ftiziatr 4. Fizioterapevt 5. Sport tibbiyoti psixologi	1. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMlari (Sport tibbiyoti yo‘nalishi kafedralari); 2. Shu yo‘nalishda faoliyat yuritadigan xususiy klinikalar;

T/r	Tibbiyot yo'nalishlari ro'yxati	Ishlab chiqish uchun mas'ul tashkilot	Multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhida bo'lishi kerak bo'lgan mutaxassislar ro'yxati	Tashkiliy masalalar va multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhlariga jalb qilinadigan tashkilotlar ro'yxati
		3. Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi	6. Diyetolog-nutritsiolog 7. Pediatr 8. Terapevt 9. Reabilitolog 10. Kardiolog 11. Otorinolariningolog 12. Urolog 13. Ginekolog 14. Pulmonolog 15. Jarroh (yo'nalish bo'yicha) 16. Oftalmolog 17. Nevropatolog 18. Endokrinolog 19. Stomatolog 20. Oilaviy shifokor 21. Funktsional tashxislash bo'yicha mutaxassis 22. Nozologiyalardan kelib chiqib boshqa tor soxa mutaxassislari jalb qilinadi	3. Sport tibbiyoti yo'nalishi bo'yicha Assotsiatsiyalar; 4. Shu yo'nalishga mos keladigan Respublika va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin

MAHALLIY KLINIK PROTOKOLLARNI ISHLAB CHIQISHGA MAS'UL VA MULTIDISTSIPLINAR ISHCHI GURUH TARKIBIGA JALB QILINADIGAN TOR MUTAXASSISLAR RO'YXATI

T/r	Tibbiyot yo'nalishlari ro'yxati	Ishlab chiqish uchun mas'ul tashkilot	Multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhida bo'lishi kerak bo'lgan mutaxassislar ro'yxati	Tashkiliy masalalar va multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhlariga jalb qilinadigan tashkilotlar ro'yxati
1.	Ambulator tashxislash va davolash Mahalliy klinik protokollari	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari birinchi o'rinbosarlari 2. Tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlari	1. Tez va shoshilinch yordam shifokori 2. Oilaviy shifokori Ambulatoriya muassasalaridan tor mutaxassislar 3. Terapevt 4. Pediatr 5. Reabilitolog 6. Fizioterapevt 7. Gerontolog 8. Ginekolog 9. Xalq tabobati mutaxassisi 10. Funktsional tashxislash bo'yicha mutaxassis va nozologiyalardan kelib chiqib jalb qilinadigan boshqa tor mutaxassislar	1. MTP, OSHP, OP va KTMLar; 2. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMLari 3. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari 4. Tibbiyot yo'nalishi bo'yicha Assotsiatsiyalar; 5. RIIATMlaridan mos ravishdagi mutaxassislarni jalb qilish 6. Shu yo'nalishga mos keladigan Respublika va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin
2.	Tuman darajasidagi muassasalarda statsionar tashxislash va davolash Mahalliy klinik protokollar	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari 2. Tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlari	Tuman tibbiyot birlashmalari, tuman/shahar klinik shifoxonalarining tarkibiy bo'limlari yo'nalishiga mos ravishdagi tor mutaxassislar jalb qilinadi	1. TTB, tuman/shahar shifoxonalari, tumanlararo markazlar, dispanserlar; 2. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMLari; 3. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari 4. Mos ravishdagi yo'nalishlar bo'yicha Assotsiatsiyalar; 5. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari 6. Shu yo'nalishga mos keladigan Respublika, viloyat va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin
3.	Viloyat darajasidagi muassasalarda statsionar tashxislash va davolash	1. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy- amaliy tibbiyot markazlarining hududiy filiallari va Viloyat ko'p tarmoqli markazlarining tarkibiy	1. RIIATMlarining viloyat filiallari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari; 2. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMLari

T/r	Tibbiyot yo‘nalishlari ro‘yxati	Ishlab chiqish uchun mas‘ul tashkilot	Multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhida bo‘lishi kerak bo‘lgan mutaxassislar ro‘yxati	Tashkiliy masalalar va multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhlariga jalb qilinadigan tashkilotlar ro‘yxati
	Mahalliy klinik protokollar	amaliy tibbiyot markazlari hududiy filiallari 2. Viloyat ko‘p tarmoqli markazlari	bo‘limlari yo‘nalishiga mos ravishdagi tor mutaxassislar jalb qilinadi	3. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari 4. Mos ravishdagi yo‘nalishlar bo‘yicha Assotsiatsiyalar; 5. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari 6. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika, viloyat va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin
4.	Respublika darajasidagi muassasalarda statsionar tashxislash va davolash Mahalliy klinik protokollar	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy- amaliy tibbiyot markazlari	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy- amaliy tibbiyot markazlarining tarkibiy bo‘limlari yo‘nalishiga mos ravishdagi tor mutaxassislar	1. Davlat va Xususiy tibbiyot OTMlari 2. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari 3. Mos ravishdagi yo‘nalishlar bo‘yicha Assotsiatsiyalar; 4. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari 5. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika va xorijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin

Milliy klinik protokollarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan tashkilot, multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhining vazifalari hamda ularni jalb qilish uchun qo'yiladigan talablar

Xalqaro davlatlar klinik qo'llanma va protokol, standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash jarayonini tashkiliy, nazorat va uslubiy ishlarini sifatli hamda samarali bo'lishi maqsadida mas'ul tashkilotlar, multidistsiplinar ishchi guruhlar va multidistsiplinar mualliflar guruhlarini tashkil qilishning zarurati to'g'risida ma'lumotlar adabiyotlarda yoritib o'tilgan.

Milliy/mahalliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish va/yoki qayta ko'rib chiqish uchun belgilangan yo'nalishga mos keladigan **tashkilotlar mas'ul** qilib belgilanadi.

Milliy klinik protokollarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan tashkilotlar

Mas'ul tashkilotlarga milliy/mahalliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish jarayonini boshqarish, muhokama qilish va tasdiqlash ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish yuklatiladi.

SSVning buyrug'i bilan belgilangan tashkilotlar mas'ul etib tayinlanadi va ular tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Mas'ul etib tayinlangan tashkilotning rahbari (yoki ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari) milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy qilish va monitoringi kabi barcha jarayonlarga mas'ul hisoblanadi;
2. Mas'ul tashkilotlar qoshida - milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish uchun tibbiyot yo'nalishi, nozologiyalarga mos ravishda oliy o'quv yurtlari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, professional tibbiyot assotsiatsiyalari, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektorlar rahbarlari (o'rinbosarlari)ni jalb qilgan holda **multidistsiplinar ishchi guruhlar, mualliflar guruhlarini tashkil qilinadi.**
3. Mas'ul tashkilotlar multidistsiplinar ishchi guruhlar, multidistsiplinar mualliflar guruhlarini faoliyatini boshqaradi, yig'ilishlar o'tkazadi, nazorat qiladi va amaliy yordam ko'rsatadi, har bir bosqichda SSVning topshiriqlariga muvofiq ishlarni sifatli va samarali bajarilishiga mas'uldirlar;
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri (o'rinbosari), Toshkent shahri va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari (o'rinbosarlari) **Mahalliy klinik protokollarni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lib**, mahalliy klinik protokollarni ishlab chiqish uchun mas'ul tashkilotlarga yuklatilgan vazifalarni bajaradi.

Multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlariga mutaxassislarni jalb qilishda foydalanish uchun talablar

Milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqishga **mas'ul bo'lgan tashkilotning rahbari multidistsiplinar ishchi guruhni boshqaruvchi raisi** hisoblanadi, shuningdek, mazkur guruhning sog'liqni saqlash vazirligi bilan bog'lanadigan **mas'ul xodimi va a'zolari** belgilanadi.

Shuningdek, milliy/mahalliy KPvaSlarni xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan Metodologiyaga muvofiq ishlab chiqish uchun tibbiyot tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari, professional tibbiyot assotsiatsiyalari, amaliyotda faoliyat yuritayotgan, shuningdek, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektor, horij davlatlaridan KPning yo'nalishiga mos keladigan tibbiyot sohasidagi yetakchi olim va mutaxassislari **muallif(hammualif)lar** sifatida jalb qiladi.

Milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqadigan multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlarini ma'lum nozologiyalar bo'yicha bir yo'nalishdagi mutaxassislar tarkib ishchi guruh bo'lishi mumkin, yoki,

Tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatish darajalaridan kelib chiqib **multidistsiplinar** ishchi va mualliflar guruhlarini tashkil qilinadi, ular tarkibiga quyida keltirilgan mutaxassislar jalb qilinadi:

- nozologiya (kasallik) bo'yicha yordam ko'rsatishga jalb qilingan oilaviy shifokorlar, tor mutaxassislar, shu jumladan, o'rta tibbiyot xodimlari;
- sog'liqni saqlash tizimining turli darajalarida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlar va/yoki tashkilotchilar;
- ijtimoiy soha xodimlari;
- ushbu nozologiya(kasallik)dan azob chekayotgan shaxslarga yordam ko'rsatayotgan jamoat tashkilotlari vakillari;
- nodavlat tashkilotlar, xususiy sektorning yetakchi mutaxassislari;
- Milliy/mahalliy KPvaSlarni rivojlantirish metodologiyasi bo'yicha mutaxassislar, epidemiologlar, sog'liqni saqlash sohasidagi IT-mutaxassislari;
- klinik farmakologlar;
- horij davlatlari ekspertlari;
- bemorlar va ularning oila a'zolari.

Multidistsiplinar **ishchi guruhning boshqaruvchi raisi** muayyan yo'nalish bo'yicha ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan tashkilotning rahbari yoki o'rinbosari bo'lib, u barcha jarayonlarni tashkillashtiradi va nazorat qilib boradi, unda:

- muammoli yoki nizoli holatlarda masalani yechimi yuzasidan sog'liqni saqlash vazirligining tegishli xodimlari bilan bog'lanadi;
- ishchi guruh a'zolari va milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiquvchi mualliflar, hammualiflar bilan jarayon yuzasidan yig'ilishlar o'tkazadi;

— milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha o‘tkaziladigan barcha yig‘ilishlari bayonlashtiriladi;

— yig‘ilishlarda manafaatlar to‘qnashuvi holatlarini oldini oladi, yig‘ilish qarorlarini Metodologiyaning 3-ilovasiga muvofiq ishchi guruh roziligi (konsensusi) asosida qabul qiladi hamda milliy/mahalliy KPvaSlarni tarkibiga kiritiladi;

— milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish yoki qayta ko‘rib chiqishni, tahrirlash va tasdiqlashni boshqaruvi, tayyor bo‘lgan mahsulotni sog‘liqni saqlash vazirligiga tegishli hujjatlar bilan o‘rnatilgan tartibda topshirilishini nazorat qiladi.

Multidistsiplinar ishchi guruhda sog‘liqni saqlash vazirligi bilan bog‘lanadigan **mas’ul xodim** belgilanadi, uning asosiy vazifasi boshqaruvchi raisga texnik va metodik ishlarni olib borishda ko‘maklashish, ma’lumotlarni umumlashtirish, sog‘liqni saqlash vazirligi bilan muntazam bog‘lanib turish hamda ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlarni topshirish uchun barcha hujjatlarni tayyorlaydi va o‘rnatilgan tartibda SSVga topshiradi;

— milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish jarayonida mualliflarga texnik va uslubiy yordamni ko‘rsatadi;

— milliy/mahalliy KPvaSlarni tasdiqlash uchun sog‘liqni saqlash vazirligiga o‘rnatilgan tartibda qo‘shimcha hujjatlarni taqdim qilishga mas’ul hisoblanadi.

Multidistsiplinar ishchi guruh a‘zolari, muallif va hammualliflarning vazifalariga quyidagilar kiradi:

— mas’ul tashkilot tomonidan milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish jarayonida o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda ishtirok etish, ishlab chiqish uchun belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida sifatli bajarish;

— milliy klinik protokollar, milliy tibbiy standartlar va standart operativ muolajalarni ishlab chiqishda muallif sifatida ishtirok etish, ambulator va/yoki statsionar sharoitdagi tibbiyot muassasalari uchun mahalliy klinik protokollarni ishlab chiqishda amaliy yordam ko‘rsatish;

— dalillarga asoslangan tibbiyotning ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan, retsenziyalangan tibbiy jurnallar va rasmiy veb-saytlarda e‘lon qilingan tibbiy ma’lumotlarni izlash va tahlil qilish;

— yetakchi horijiy professional assotsiatsiyalar va xalqaro tashkilotlar (JSST va boshqalar) tomonidan yaratilgan, nashr etilgan klinik protokollar va yo‘riqnomalarni tibbiyot tizimi xususiyati, tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasi hamda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib muvofiqlashtirish;

— milliy/mahalliy KPvaSlarga kiritilayotgan ma’lumotlarni tahlili jarayonida tavsiyalarni, nashrlar va maqolalarni tanqidiy baholash va umumlashtirish;

— milliy/mahalliy KPvaSlarga kiritilayotgan ma’lumotlarni isbotlanganlik darajasini dalillarga asoslangan tibbiyot ma’lumotlariga muvofiqligini belgilash;

— milliy/mahalliy KPvaSlarni nozologiyalar bo‘yicha matni, harakatlar

algoritmlarining loyihalarini ishlab chiqish.

Multidistsiplinar ishchi guruh a'zolari, muallif va hammualliflarni jalb qilish uchun mezonlar:

- milliy/mahalliy KPvaSlarning yoʻnalishi boʻyicha faoliyat yuritadigan yetakchi mahalliy yoki xorijiy olimlar va amaliyot mutaxassisi sifatida faoliyat yuritishi;
- dalillarga asoslangan tibbiyot sohasida koʻnikma va bilimlarga ega boʻlishi;
- milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish/qayta koʻrib chiqishda ishtirok etgan boʻlishi;
- muayyan mutaxassislik boʻyicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega boʻlgan tibbiyot xodimlari;
- milliy/mahalliy KPvaSlarga kiritilgan tavsiyalarning metodologik sifati va shaffofligini baholay olish koʻnikmasiga ega boʻlishi;
- Oʻzbekiston Respublikasining sogʻliqni saqlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, tibbiyot sohasida KPning yoʻnalishi boʻyicha kuzatilayotgan yangiliklar va yutuqlar, JSST tavsiyalari toʻgʻrisida bilishi yoki maʼlumotga ega boʻlishi;
- milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish boʻyicha metodologiyani bilishi va undan foydalana olishi;
- oʻz yoʻnalishi boʻyicha horijiy davlatlarning yetakchi olim va amaliyot mutaxassislari bilan uzviy hamkorliklar olib borishi.

Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va konsensusga erishish uslubi

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish vaqtida multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlarining a‘zolari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kuzatilishi mumkin, unda mas‘ul tashkilotlar rahbarlari bunday holatni bartaraf qilishi talab qilinadi va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e‘lon qilib har bir a‘zodan aniq ma‘lumotlarni olishi talab etiladi. Buning uchun quyida keltirilgan jadvardagi savolnomani multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlarining a‘zolari to‘ldirib berishlari talab etiladi.

Mazkur holatlarni bartaraf etishda ishchi guruhga potentsial manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lgan shaxslar kiritilmasligi kerak, ya‘ni, multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlarining a‘zolari tomonidan ishlab chiqilayotgan hujjatda belgilab olingan maqsadlarga zid bo‘lgan qiziqishlar paydo bo‘lgan holatlarda, shu jumladan:

- ko‘rib chiqilayotgan kasallik (holat) bilan og‘rigan bemorlarga tibbiy buyumlarni sotishdan daromad oladigan barcha shaxslar yoki bunday bemorlarga yordam ko‘rsatadigan tashkilotlar, masalan, dori vositalari ishlab chiqarish yoki tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchi zavoddagi ulushlar yoki ushbu tovarlar yoki xizmatlar bilan bog‘liq boshqa biznes (dori vositalarining ulgurji savdosi, dorixonalar va boshqalar) yoki tibbiy tashkilotga egalik qilish. Bemorlarga maxsus xizmatlar ko‘rsatadigan yoki ushbu tovarlarni sotishdan daromad olish imkonini beruvchi patentlarga egalik qilish, xuddi shunday, raqobatdosh tovarlarni ishlab chiqarish va sotishdan manfaatdor shaxslar;
- KPda ko‘rib chiqilayotgan yoki ko‘rib chiqilishi kutilayotgan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarga pullik xizmatlar ko‘rsatadigan, shu jumladan, bunday ishlab chiqaruvchilar uchun to‘liq bo‘lmagan ish kunida ishlaydigan shaxslar (masalan, shifokorlar uchun dori vositasi yoki tibbiy apparaturani ishlab chiqaruvchilari tomonidan qoplanadigan asosda ma‘ruzalar o‘qish);
- bevosita oila a‘zolari yuqorida ko‘rsatilgan ishlab chiqarish ob‘ektiga ega bo‘lgan yoki ishlab chiqaruvchiga xizmat ko‘rsatadigan (ishlab chiqaruvchida ishlagan) yoki ushbu tovarlar yoki xizmatlar bilan bog‘liq boshqa biznesni ko‘rsatadigan shaxslar (dori-darmonlar, ulgurji dorixonalar va boshqalar);
- boshqa imtiyozlarni, masalan, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilardan sovg‘alar shaklida oladigan yoki bunday ishlab chiqaruvchilar yoki ushbu tovarlar yoki xizmatlar bilan bog‘liq boshqa korxonalar tomonidan taqdim etilgan grantlar bo‘yicha to‘lovlarni oladigan shaxslar (dorilar ulgurji savdosi, dorixonalar va boshqalar);
- manfaatlar to‘qnashuvi 5 yoki undan ko‘proq yil oldin mavjud bo‘lsa, ahamiyatsiz deb hisoblanishi mumkin;

— agar potentsial manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lgan mutaxassisning vakolati KPni ishlab chiqishda boshqa mutaxassisning vakolati bilan qoniqarli tarzda almashtirilishi mumkin bo‘lmasa, manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lgan bunday mutaxassisga cheklangan huquq berilishi kerak. Ishlab chiqishda ishtirok etish uchun: u potentsial manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan KP bo‘limlarini yozish va tahrirlashda qatnashmasligi va mahsulot (dorilar) dan foydalanish masalasida ishchi guruh yig‘ilishlarida qatnashmasligi kerak, tibbiy asbob-uskunalar, xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan ziddiyat ko‘rib chiqiladi;

— potentsial manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini yashiradigan shaxslar KPni ishlab chiqishni boshlagan tashkilot tomonidan kelajakda KPni ishlab chiqish jarayonidan chiqarib tashlanishi kerak. Mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini yashirgan holda, ular ishlab chiqishda ishtirok etgan KP, ishchi guruh tomonidan chiqarib tashlangan mahsulot yoki xizmatlar foydasiga KP bayonotlarida mumkin bo‘lgan buzilishlar uchun ko‘rib chiqilishi kerak.

HA YO‘Q	Nazorat qiluvchi organlarni qiziqtiradigan moliyaviy yoki boshqa manfaatlar yoki kompaniya bilan kelishuvlar sizga tegishli bo‘lsa, “HA” yoki “YO‘Q” belgisini qo‘yib ko‘rsating:	
<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>	Siz yoki yaqinlaringiz dori vositalari va (yoki) tibbiy buyumlarga patentlar, tovar belgilari, mualliflik huquqi to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha mulkiy huquqlarga, patent huquqlariga yoki huquqlarga egamisiz?	Intellektual harakterdagi mulkiy huquqlar

Shu bilan yuqoridagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlayman. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, Sog‘liqni saqlash vazirligini xabardor qilishga majburman.

Sana: _____

Imzo: _____ (_____) imzo nusxasi

Milliy/mahalliy klinik protokol va
standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va
tibbiyot amaliyotiga joriy etish
metodologiyasiga
4-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN _____
ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“ _____ ” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 202__

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

Sog‘liqni saqlash vaziri v.b.

A.Xudayarov

“ _____ ” “ _____ ” 20__ yil

“ _____ ” **NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 202__

“KELISHILGAN”

**Respublika ixtisoslashtirilgan
_____ ilmiy-amaliy tibbiyot
markazi direktori**

_____”
“ _____” 202__ yil

**“ _____” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 202__

Mundarija

“_____” NOZOLOGIYASINING TASHXISLASH VA DAVOLASH BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI	5
“_____” NOZOLOGIYASINING TIBBIY ARALASHUVLARI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI	14
“_____” NOZOLOGIYASINING PROFILAKTIKA VA REABILITATSIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI	17
«_____» NOZOLOGIYASINING PALLIATIV DAVOSI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI	21

**“_____” NOZOLOGIYASINING
TASHXISLASH VA DAVOLASH MILLIY KLINIK
PROTOKOLI**

TOSHKENT – 202_____

1. Kirish qismi

- Qisqacha annotatsiya, unda — mazkur milliy klinik protokollar XKT-10/11ning _____ shifri (nozologiya nomi) _____, mazkur nozologiya nima uchun ishlab chiqilgan, qaysi DPMLlarda qoʻllaniladi.

Xalqaro kasalliklar tasnifi – XKT-10/11 shifr(lar)i:

XKT-10/11	
Kod	Nomi
	Yuklab olish (XKT-10/11 dan havola ya'ni giperhavola)

- Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish va qayta koʻrib chiqishning ehtimoliy sanasi;
- Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish uchun mas'ul boʻlgan tashkilot: (nomi)

MILLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISHDA XISSA QOʻSHGANLAR:

- Multidistsiplinar ishchi guruh aʼzolari: (ish joyi, toʻliq ismi sharifi, lavozimi/unvoni);
- Multidistsiplinar mualliflar roʻyxati, qoʻshimcha hammualliflar jamoasi (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);
- Taqrizchilar (2 ta tashqi taqriz, respublika va horijdan), (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);
- Multidistsiplinar ishchi guruh yigʻilishida Milliy klinik protokollarni loyahasini muhokamasi bayonnomasidan koʻchirmaning raqami va sanasi;
- pediatriya yoki terapiya yoki jarrohlik, hamshiralik ishi tibbiyot yoʻnalishlari kengashlari yigʻilishida AGREE usulida muhokamadan oʻtkazilganligi xulosasi va yigʻilish bayonnomasidan koʻchirma (sana, № raqami);

Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash boʻyicha ekspert xulosasi va tahrirlash:

- (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);

Milliy klinik protokol va standartlarni Sogʻliqni saqlash vazirligining Ekspert guruhi mutaxassislari tomonidan oʻtkazilgan baholash boʻyicha ekspert xulosasi:

- (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);

Mazkur milliy klinik protokol va standart Sogʻliqni saqlash vazirining oʻrinbosari (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), tegishli boshqarma boshligʻi (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish boʻlimi boshligʻi (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), bosh mutaxassislari (toʻliq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni)lar tomonidan uslubiy boshchiligida ishlab chiqilgan.

Sogʻliqni saqlash vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtirilgan Kengash yigʻilish bayonnomasidan koʻchirma (sana, №raqam)

QISQARTMALAR RO‘YXATI

....

- Mazkur nozologiya bo‘yicha Milliy klinik protokol va standartlarning foydalanuvchilari —;
- Mazkur nozologiya bo‘yicha milliy klinik protokol va standartlarga to‘g‘ri keladigan bemorlar toifasi;
- Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi shkalasi – sharhlari keltiriladi.

Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi (tashxislash aralashuvlari uchun)

Dalillarning isbotlanganlik darajasi	
1	Referens usul yordamida nazorat ostida o‘tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi
2	Referens usul nazorati bilan o‘tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Referens usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o‘rganilayotgan usuldan mustaqil bo‘lmagan referens usul yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Muolajaning ta’sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi

Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi (profilaktika, davolash va reabilitatsion tadbirlar uchun)

Dalillarning isbotlanganlik darajasi	
1	Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi
2	Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, “holat-nazorat” tadqiqoti
5	Muolajaning ta’sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi	
A	Kuchli tavsiya (barcha ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilgan)
V	Shartli tavsiya (ayrim ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)
S	Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan, ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari, natijalar) muhim o‘rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan

2. Asosiy qism

- Kirish (qisqa xulosa 0,5 betgacha) — Milliy klinik protokol va standartlar ishlab chiqilayotgan nozologiyaning tarqalganligi, dolzarbligi yoritilishi kerak;
- Nozologiyaning — umumiy ta’rifi (ta’rifning yakunida foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Klinik tasnifi - etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi bosqichlari bo’yicha (foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Tashxislash (diagnostika) mezonlari (imkon qadar, dalillar darajasi ko’rsatilgan holda, jarayonning og’irligiga qarab kasallikning ishonchli belgilarining tavsifi, foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting).

3. Tekshiruv usullari, uslublari, tibbiy muolajalar yondoshuvlari va tashxislash jarayonlari

- Shikoyatlar va anamnez (epid. anamnez, hayot anamnezi, kasallik anamnezi, bemor shikoyatidagi sindromning paydo bo’lishi va namoyon bo’lish tabiati, foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Kasallikni klinik ko’rinishi, ushbu tashxis/nozologiya bo’yicha ob’yektiv va fizikal tekshiruvlari (foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Asosiy va qo’shimcha laborator tekshiruvlari (misol uchun, qondagi leykotsitlar darajasining ortishi, normaning raqamli ko’rsatkichlarini va (yoki) patologik holatning ko’rsatkichlarini kiritish, laborator tekshiruvlar natijalarini sharhlari yoritilishi kerak, dalillar isbotlanganlik darajasini kiriting, foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Asosiy va qo’shimcha instrumental tekshiruvlar (misol uchun, asosiy – rentgenologik tekshiruv, natijalarni sharhlari va shu tashxis/nozologiyaga xos rentgenologik belgilarini yoritish; qo’shimcha – ezofagogastroduadenoskopiya tekshiruvi – ushbu tashxis/nozologiyani rivojlanishi yoki boshlanishiga ta’sir qiladigan belgilarni sharhi va natijalarni yoritish, dalillar isbotlangan darajasini kiriting, foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Asosiy va ko’rsatmaga muvofiq mutaxassislarining konsultativ maslahati, umumiy ko’ruviga ko’rsatmalar (tor soha mutaxassisining konsultativ ko’ruvining maqsadini yoritish, foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Tashxislash algoritmlari, davolash yondashuvlari bo’yicha algoritmlar, bemor marshrutizatsiyasi bo’yicha algoritmlar (yuqoridagi keltirilgan barcha tashxislash mezonlarini algoritm shaklida ko’rsatish, foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Qiyosiy tashxis va qo’shimcha tekshiruvlarni asoslash (qaysi kasallik bilan qiyosiy (differentsial) tashxis o’tkazish va uning mezonlarini aniq ko’rsatish, foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting):

Tashxis	Qiyosiy tashxis uchun asos	Tekshiruvlar	Tashxisni istisno qilish mezonlari

4. Ambulatoriya darajasida davolash taktikasi:

- Mazkur nozologiya bo'yicha bemorlarga ambulator davolash o'tkazilishi kerak bo'lsa, davoni o'tkazadigan shifokor, statsionar davoga qadar taktikasi qisqacha yoritiladi (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Tavsiya etiladigan nomedikamentoz (dori-vositalarisiz) davolash, ya'ni sog'lom turmush tarzi elementlari, to'g'ri-muqobil ovqatlanish, kun va uyqu rejimi, parhez (stol№..), fitoterapiya, fizioterapiya va boshqa turdagi xalq tabobati usullari (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Ambulator va uy sharoitida o'tkaziladigan medikamentoz (dori-vositalari bilan) davolash maqsadi, xususiyatini yozing, unda dori vositalarining farmakologik guruhlar va O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan, xalqaro patentlanmagan nomi (keyingi o'rinlarda XPN) ko'rinishida dori vositalari yoziladi;
- Davo kursi yoki ishlab chiqarish shakli (eritma yoki tabletka) ko'rinishlari, sutkalik dozalari kabi qo'shimcha xususiyatlarini to'liq yozib chiqing (**!!!DIQQAT — firma nomini yoritish mumkin emas**).
- Dori vositalarini tavsiyasida o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lsa, quyidagicha ko'rsating: misol uchun, tomir ichiga yuborish, insulin pompasi va boshqalar (**dalillar isbotlanganlik darajasini ko'rsatish majburiy, foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting**);
- **O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalari***ni Milliy klinik protokolga kiritishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:
 - ushbu protokolga kiritish – o'z asosiga ega bo'lishi kerak, ya'ni preparat ushbu patologiyani davolashda dalillarga asoslangan tibbiyotning yuqori darajasiga ega (darajasini kiriting) bo'lishi shart va preparat ushbu kasallikni davolashda O'zbekiston Respublikasi dori vositalari ro'yxatida mavjud doriga nisbatan samarasi yuqoriroq ekanligi to'g'risida ma'lumot to'liq kiritilishi kerak (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
 - * - O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalarini klinik protokolga kiritilgan holatda, matnda ushbu dori vositalariga (*) belgi qo'yiladi va dori vositasining O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi, orfan kasalliklar uchun dori vositalarini – orfan kasalligi maqomi ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, qizil rangda — **O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalarining klinik bayonnomaga kiritilishi bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta tizimida harajatlarni qoplash uchun asos bo'lmaydi** – degan jumlaning kiritilishi kerak.
- Ambulator sharoitda davolash tartibini quyidagi jadvallar asosida yozib chiqing, unda 100% foydalanish ehtimoli – Asosiy dori vositalar ro'yxatini anglatadi, 100% dan kam foydalanilish ehtimoli bilan – jadvalda qo'shimcha dori-vositalari to'liq yoritiladi.

1-jadval

Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan): dalillar darajasini kiritish kerak

Farmako-terapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi	Qo'llash tartibi	Dalillar darajasi
--------------------------	---	------------------	-------------------

			Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting)
--	--	--	---

2-jadval

Qo'shimcha dori-vositalarning ro'yxati (foydalanish ehtimoli 100% dan kam): dalillar darajasini kiritish kerak

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi	Qo'llash tartibi	Dalillar darajasi
			Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting)

- Ambulator sharoitda jarrohlik aralashuvi o'tkaziladigan bo'lsa, jarrohlik amaliyoti va/yoki tibbiy muolajada foydalaniladigan usullarni yozib chiqing. Agar mazkur nozologiyada ambulator sharoitida jarrohlik amaliyoti va/yoki tibbiy muolaja zarur bo'lsa, unda uning asoslari va ko'rsatmalarini yozing: misol uchun, ma'lum bir vaqt dori-vositalar bilan davolash davomida samara kuzatilmasa, davolash samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarida ijobiy siljish dinamikasi kuzatilmaganligi asos sifatida keltiriladi hamda jarrohlik amaliyoti va/yoki tibbiy muolajaga ko'rsatmalar yoziladi (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);

- Ambulator sharoitda o'tkazilgan jarrohlik amaliyoti va/yoki tibbiy muolajadan keyingi davolash, ya'ni rehabilitatsiya, ambulatoriya sharoitida bemorni qo'llab-quvvatlash aniq muddat, kim tomonidan o'tkaziladi va nimalar amalga oshiriladi, qisqaloqda yozilishi kerak (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);

- Ambulator sharoitda olib borilgan davo muolajalarining natijasida bemor holatidan kelib chiqib, protokolga kiritilgan tashxislash va davolash usullarining xavfsizligi hamda davolash samaradorligi indikatorlarini, misol uchun, qorin pardaning yallig'lanish belgilari yo'qligi, jarrohlik amaliyoti va/yoki tibbiy muolajadan keyingi asoratlarning yo'qligi, davolash tadbirlari samaradorligini nazorat qilishning tashxislovchi mezonlarini ham kiriting (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting).

- Ambulator sharoitda ko'rsatilgan tibbiy yordam samarasizligi yoki murojaat qilingan bemor holati bo'yicha ambulator davo o'tkazilmaydigan shoshilinch holatlarda shifokor taktikasi, ya'ni ko'rsatadigan birlamchi yordami va statsionarga yo'naldirishi kerak bo'lgan sabablarni kiriting (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);

5. Tibbiy yordam ko'rsatish turidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalarini to'liq yozib chiqing:

- Rejali yordam ko'rsatish shifoxonasiga yotqizish uchun ko'rsatmalar (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Shoshilinch yordam ko'rsatish shifoxonasiga yotqizish uchun ko'rsatmalar (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting).

6. Statsionar darajasida davolash taktikasi:

- Bemorni statcionarga qabul qilib olishda tibbiyot xodimining harakatlari, kuzatish kartasi, bemorni marshrutizatsiyasi (sxemalar, algoritmlar);
- nomedikamentoz (dori-vositalarisiz) davolash sog'lom turmush tarzi elementlari, to'g'ri-muqobil ovqatlanish, kun va uyqu rejimi, parhez (stol№..), fitoterapiya, fizioterapiya va boshqa turdagi xalq tabobati usullari (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- statsionar sharoitda o'tkaziladigan medikamentoz (dori-vositalari bilan) davoning maqsadi, xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar kiriting, shuningdek, dori vositalarini farmakologik guruhlari va O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan, xalqaro patentlanmagan nomi (keyingi o'rinlarda XPN) ko'rinishida dori vositalari yoziladi;
- davo kursi yoki ishlab chiqarish shakli (eritma yoki tabletka) ko'rinishlari, sutkalik dozalari kabi qo'shimcha xususiyatlarini to'liq yozib chiqing (**!!!DIQQAT — firma nomini yoritish mumkin emas**).
- dori vositalarini tavsiyasida o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lsa, quyidagicha ko'rsating: misol uchun, tomir ichiga yuborish, insulin pompasi va boshqalar (**dalillar isbotlanganlik darajasini ko'rsatish majburiy, foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting**);
- **O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalari***ni Milliy klinik protokol va standartlarga kiritishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:
 - ushbu protokolga kiritish — o'z asosiga ega bo'lishi kerak, ya'ni preparat ushbu patologiyani davolashda dalillarga asoslangan tibbiyotning yuqori darajasiga ega (darajasini kiriting) bo'lishi shart va preparat ushbu kasallikni davolashda O'zbekiston Respublikasi dori vositalari ro'yxatida mavjud doriga nisbatan samarasi yuqoriroq ekanligi to'g'risida ma'lumot to'liq kiritilishi kerak (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- * - O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalarini klinik protokolga kiritilgan holatda, matnda ushbu dori vositalariga (*) belgi qo'yiladi va dori vositasining O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi, orfan kasalliklar uchun dori vositalarini – orfan kasalligi maqomi ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, qizil rangda – **O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalarining klinik bayonnomaga kiritilishi bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta tizimida harajatlarni qoplash uchun asos bo'lmaydi** – degan jumlani kiriting.
- Statsionar sharoitda davolash tartibini quyida keltirilgan jadvallar asosida yozib chiqing, unda 100% foydalanish ehtimoli – asosiy dori vositalar ro'yxatini anglatadi, 100% dan kam foydalanilinish ehtimoli bilan – jadvalida qo'shimcha dori-vositalari to'liq yoritiladi.

**Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan):
dalillar darajasini kiritish kerak**

Farmako- terapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi	Qo'llash tartibi	Dalillar darajasi
			Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting)

**Qo'shimcha dori-vositalarning ro'yxati (foydalanish ehtimoli 100% dan kam):
dalillar darajasini kiritish kerak**

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi	Qo'llash tartibi	Dalillar darajasi
			Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting)

- Statsionar sharoitda jarrohlik aralashuvi o'tkaziladigan bo'lsa, jarrohlik amaliyotida foydalaniladigan usullarni yozib chiqing. Agar mazkur nozologiyada ambulator sharoitida jarrohlik amaliyoti zarur bo'lsa, unda uning asoslari va ko'rsatmalarini yozing: misol uchun, ma'lum bir vaqt dori-vositalar bilan davolash davomida samara kuzatilmasa, davolash samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarida ijobiy siljish dinamikasi kuzatilmasa (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Statsionar sharoitda o'tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyingi davolash, ya'ni operatsiyadan keyingi, reanimatsion davo va statsionar bo'limidagi parvarish bo'yicha ma'lumotlar;
- Statsionardan chiqish uchun ko'rsatmalar, statsionardan chiqqandan keyingi uy sharoitidagi parvarish, rehabilitatsiya, ambulatoriya sharoitida bemorni qo'llab-quvvatlash aniq muddat, kim tomonidan o'tkaziladi va nimalar amalga oshiriladi, qisqalo'nda yozilishi kerak (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Statsionar sharoitda olib borilgan davo muolajalarining natijasida bemor holatidan kelib chiqib, protokolga kiritilgan tashxislash va davolash usullarining havfsizligi hamda davolash samaradorligi indikatorlarini, misol uchun, qorin pardaning yallig'lanish belgilari yo'qligi, operatsiyadan keyingi asoratlarning yo'qligi, davolash

tadbirlari samaradorligini nazorat qilishning tashxislovchi mezonlarini ham kiriting (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting).

- Statsionar sharoitda ko'rsatilgan tibbiy yordam samarasizligi yoki murojaat qilingan bemor holati bo'yicha ambulator davolash o'tkazilmaydigan shoshilinch holatlarda shifokor taktikasi, ya'ni ko'rsatadigan birlamchi yordami va statsionarga yo'naldirishi kerak bo'lgan sabablarni kiriting (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting).

“”

**NOZOLOGIYASINING TIBBIY
ARALASHUVLARI BO‘YICHA MILLIY
KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT – 202_

XKT-10/11 shifr (lar)i:

XKT-10/11	
Kod	Nomi
	Yuklab olish (XKT-10/11 dan giperhavolani kiriting)

1. Asosiy qism

- Kirish – Milliy klinik protokol va standartlar nozologiyasi bilan tashxislangan bemorlarda spetsifik bo‘lgan tibbiy muolajalar va/yoki jarrohlik amaliyotini nomlarini yozing, ularni aynan shu nozologiyada o‘tkazish muhimligi yoki dolzarbligi bo‘yicha ma’lumotlar kiriting (qisqacha 0,5 betgacha foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyotining umumiy ta’rifi (foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyotining klinik tasnifi (eng keng tarqalgan yondashuvlar, etiologiyasi, bosqichi bo‘yicha).
- Milliy klinik protokol va standartlarda olingan nozologiyada spetsifik bo‘lgan tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyoti usullari, yondashuvlari va muolajalarini yozib chiqing.

2. Mazkur nozologiyada tanlangan tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyotining qo‘llanilishi tartibi

- SOM ishlab chiqilgan nozologiyada o'tkaziladigan tibbiy muolaja, tibbiy harakat yoki amaliy ko'nikmaning nomlanishi;
- SOM ishlab chiqilgan nozologiyada qo'llanilayotgan tibbiy muolaja, tibbiy harakat yoki amaliy ko'nikma bo'yicha ishlab chiqishning asosiy maqsadi;
- bu muolaja yoki amaliy ko'nikma qayerda, ya'ni qaysi davolash profilaktika muassasasida bajarilishi kerak;
- kimlar bu muolajani yoki amaliy ko'nikmani bajarishga mas'ul, kimlar yordamchilar hisoblanadi (mutaxassis nomi va ularga qo'yilgan talablar);
- SOM asosida o'tkaziladigan tibbiy muolaja, tibbiy harakat yoki amaliy ko'nikmaga bo'ladigan resurslar, tibbiy anjom va apparaturalar nomi, soni;
- tibbiy muolaja, tibbiy harakat yoki amaliy ko'nikmani qadamma-qadam bajarish tartibi;
- tibbiy muolaja yoki amaliy ko'nikmani bajarish uchun ketadigan vaqt (xronometraj);
- standart operativ muolajalarni bajarishdan kutilayotgan (qisqa muddatli, oraliq yoki yakuniy) natijalar.
- foydalanilgan adabiyotlar, internet havolalar.

Milliy/mahalliy klinik protokol va
standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va
tibbiyot amaliyotiga joriy etish
metodologiyasiga
5-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
_____ VILOYATI SOG‘LIQNI SAQLASH BOSHQARMASI
_____ TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI
_____ KO‘P TARMOQLI MARKAZIY POLIKLINIKASI

“_____” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
AMBULATOR TASHXISLASH VA DAVOLASH
MAHALLIY KLINIK PROTOKOLI

TOSHKENT-202__

“TASDIQLAYMAN”
_____ - son KTMP mudiri

“ _____ ” “ _____ ” 202__ yil

“ _____ ” NOZOLOGİYASI BO‘YICHA
AMBULATOR TASHXISLASH VA DAVOLASH
MAHALLIY KLINIK PROTOKOLI

TOSHKENT – 202__

1. Kirish qismi

Qisqacha annotatsiya, unda - Mazkur mahalliy klinik protokollar XKT-10/11 shifri (nozologiya nomi) _____ nozologiya nima uchun ishlab chiqilgan, (tibbiyot muassasasi nomi) _____ ning (bo'lim nomi) _____ bo'limlarida qo'llaniladi.

Xalqaro kasalliklar tasnifi – XKT-10/11 shifr(lar)i:

XKT-10/11	
Kod	Nomi
	Yuklab olish (XKT-10/11 dan havola)

- mahalliy klinik protokolni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqishning ehtimoliy sanasi;
- multidistsiplinar mualliflar ro'yxati, qo'shimcha hammualliflar jamoasi (to'liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);
- Taqrizchilar (2 ta taqriz) (to'liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);
- (tibbiyot muassasasi nomi) _____ ning mahalliy klinik protokol va standartlarini muhokamasi o'tkazilgan yig'ilish bayonnomasidan ko'chirmaning raqami va sanasi;
- Mahalliy Kengash yig'ilishida AGREE usulida muhokamadan o'tkazilganligi xulosasi va yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma (sana, № raqami).

Mahalliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo'yicha ekspert xulosasi va taxrirlash:

- (to'liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni).

Mazkur mahalliy klinik protokol Sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari (to'liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), tegishli boshqarma boshlig'i (to'liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish bo'limi boshlig'i (to'liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), bosh mutaxassisleri (to'liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni)lar tomonidan uslubiy boshchiligida ishlab chiqilgan.

_____ respublika/viloyat/shahar sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i (sana, raqam).

QISQARTMALAR RO‘YXATI

- Mazkur nozologiya bo‘yicha mahalliy klinik protokollarning foydalanuvchilari;
- Mazkur nozologiya bo‘yicha mahalliy klinik protokollarga to‘g‘ri keladigan bemorlar toifasi;

2. Asosiy qism – Ambulator sharoitda davolash yondashuvlari (kiritiladigan ma’lumotlar Milliy klinik protokol va standartlardan olinib yoziladi)

Tibbiyot muassasasi turidan (MTP, OSHP, OP, KTMP va TTYO shahobchalari, xususi poliklinika, xususi diagnostik markazlar, shifoxonalar va tibbiyot markazlarining poliklinikalari) va shu muassasalarda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatning yo‘nalishlaridan (oilaviy shifokorlik, pediatriya, terapiya va h.k.), shuningdek, tibbiy ta‘minotidan kelib chiqib davo muolajalari ajratib olinadi, ya‘ni:

Ambulator davо – uy sharoitida (tibbiyot xodimi nazoratida) va kunduzgi statsionar davoni o‘zida tutadi.

- Kirish (qisqa xulosa 0,5 betgacha) Mahalliy klinik protokol va standartlar ishlab chiqilayotgan nozologiyaning tarqalganligi, dolzarbligi yoritilishi kerak;
- Nozologiyaning umumiy ta‘rifi (ta‘rifning yakunida foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Klinik tasnifi etiologiyasi, patogenezini, klassifikatsiyasi bosqichlari bo‘yicha (foydalanilgan ma’lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);

3. Ambulator sharoitda o‘tkaziladigan tekshiruv usullari, uslublari, tibbiy muolajalar yondoshuvlari va tashxislash jarayonlari

- shikoyatlari – (asosiy/qo‘shimcha);
- anamnez – epid. anamnez, hayot anamnezi, kasallik anamnezi, bemor shikoyatidagi sindromning paydo bo‘lishi va namoyon bo‘lish tabiati (asosiy/qo‘shimcha);
- kasallikni klinik ko‘rinishi, ushbu tashxis/nozologiya bo‘yicha ob‘yektiv va fizikal tekshiruvlari (asosiy/qo‘shimcha);
- laborator tekshiruvlari (asosiy/qo‘shimcha), natijalarni sharxi nozologiyaga xos o‘zgarishlarni keltiring;
- instrumental tekshiruvlar (asosiy/qo‘shimcha) natijalarni sharxi nozologiyaga xos o‘zgarishlarni keltiring;
- mutaxassislarning konsultativ maslahati (asosiy/ko‘rsatmaga muvofiq) tor soxa mutaxassisining konsultativ ko‘ruvining maqsadini yoritib, ushbu nozologiyaga xos bo‘lgan mutaxassislar xulosalarini kiriting;
- tashxislash algoritmlari, davolash yondashuvlari bo‘yicha algoritmlar, bemor marshrutizatsiyasi bo‘yicha algoritmlar.

4. Davolash tartibi (dori vositalarining guruhlari va patentlanmagan nomi yozilishi shart):

A) Nomedikamentoz davo muolajalari:

- Diyeteta (asosiy/qo‘shimcha);
- Fitoterapiya (asosiy/qo‘shimcha);
- Fizioterapiya (asosiy/qo‘shimcha);
- Xalq tabobatining boshqa usullari (asosiy/qo‘shimcha).

B) Medikamentoz davo muolajalari:

- peroral dori vositalari (asosiy/qo‘shimcha);
- inyeksion mushak orasiga (asosiy/qo‘shimcha);
- inyeksion vena ichiga (asosiy/qo‘shimcha);
- bo‘g‘im ichiga (asosiy/qo‘shimcha);
- va boshqa usuldagi qo‘llaniladigan dori vositalar (asosiy/qo‘shimcha).

- Asosiy dori-vositalarning ro‘yxati, 100% foydalanish ehtimoli bilan bo‘lgan dori vositalari kiritiladi:

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi va ATX-shifri	Qo‘llash tartibi, dozasi va davomiyligi
-------------------------	---	---

- Qo‘shimcha dori-vositalarning ro‘yxati, foydalanish ehtimoli 100% dan kam bo‘lgan dori vositalar kiritiladi:

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi va ATX-shifri	Qo‘llash tartibi, dozasi va davomiyligi
-------------------------	---	---

Mazkur nozologiyani davolashda tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyoti talab qilinsa, shu muolaja va/yoki amaliyotga ko‘rsatmalar kiritilishi shart!

Ya‘ni, statsionar davoga yo‘nalitirish uchun ko‘rsatmalar kiritilishi shart!

5. Statsionardan keyingi kuzatuv, profilaktika va reabilitatsiya tadbirlari

Bu band asosan ambulator xizmat ko‘rsatadigan tibbiyot muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi, unda:

- statsionarda kasallik tarixidan ko‘chirmada belgilangan nazorat rejasi;
- muassasada kim tomondan statsionardan keyingi kuzatuv amalga oshirilishi kerak;
- “D” nazoratiga ro‘yxatga kiritish uchun ko‘rsatmalar;
- mazkur nozologiyada “D” nazoratini o‘tkazish tartibi;
- mazkur nozologiyada profilaktika tadbirlari nomlarini yozing, ularni kim o‘tkzadi, muddati va davomiyligi, shifokor harakati;

- mazkur nozologiyada reabilitatsiya tadbirlari nomlarini yozing, ularni kim o‘tkzadi, muddati va davomiyligi, shifokor harakati;
- “D” nazoratidan chiqarish uchun ko‘rsatmalar.

6. Palliativ davo muolajalari

Bu band asosan palliativ xizmat ko‘rsatadigan tibbiyot muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi, unda:

- palliativ davoga ko‘rsatma;
- kim va qayerda o‘tkazadi;
- palliativ davoni o‘tkazish tartibi;
- palliativ davoni o‘tkazish bo‘yicha yana boshqa talab va tartiblar yoziladi.

7. Foydalanilgan me‘yoriy huquqiy hujjatlar, adabiyotlar.

Milliy/mahalliy klinik protokol va
standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va
tibbiyot amaliyotiga joriy etish
metodologiyasiga
5a-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN _____
ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

Yoki

_____ **VILOYATI SOG‘LIQNI SAQLASH BOSHQARMASI**
_____ **MARKAZINING _____ VILOYATI FILIALI**

**“ _____ ” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
STATSIONAR TASHXISLASH VA DAVOLASH
MAHALLIY KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT-202__

“TASDIQLAYMAN”
Respublika ixtisoslashtirilgan
_____ **ilmiy amaliy tibbiyot**
markazi direktori

“ _____ ” “ _____ ” 202__ yil

“ _____ ” **NOZOLOGIYASI BO‘YICHA**
STATSIONAR TASHXISLASH VA DAVOLASH
MAHALLIY KLINIK PROTOKOLI

TOSHKENT – 202__

1. Kirish qismi

Qisqacha annotatsiya, unda - Mazkur mahalliy klinik protokollar XKT-10/11 shifri (nozologiya nomi) _____, mazkur nozologiya nima uchun ishlab chiqilgan, (tibbiyot muassasasi nomi) _____ ning (bo‘lim nomi) _____ bo‘limlarida qo‘llaniladi.

Xalqaro kasalliklar tasnifi – XKT-10/11 shifr(lar)i:

XKT-10/11	
Kod	Nomi
	Yuklab olish (XKT-10/11 dan havola)

- mahalliy klinik protokolni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqishning ehtimoliy sanasi;
- Multidistsiplinar mualliflar ro‘yxati, qo‘shimcha hammualliflar jamoasi (to‘liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);
- Taqrizchilar (2 ta taqriz) (to‘liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni);
- (tibbiyot muassasasi nomi) _____ ning mahalliy klinik protokol va standartlarini muhokamasi o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirmaning raqami va sanasi;
- Mahalliy kengashlari yig‘ilishida AGREE usulida muhokamadan o‘tkazilganligi xulosasi va yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma (sana, № raqami);

Mahalliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo‘yicha ekspert xulosasi va taxirlash:

- (to‘liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni).

Mazkur mahalliy klinik protokol Sog‘liqni saqlash vazirining o‘rinbosari (to‘liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), tegishli boshqarma boshlig‘i (to‘liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish bo‘limi boshlig‘i (to‘liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni), bosh mutaxassislari (to‘liq ism-sharifi, ish joyi, lavozimi/unvoni)lar tomonidan uslubiy boshchiligida ishlab chiqilgan.

_____ respublika/viloyat/shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘ining buyrug‘i (sana, raqam).

QISQARTMALAR RO'YXATI

- Mazkur nozologiya bo'yicha mahalliy klinik protokollarning foydalanuvchilari;
- Mazkur nozologiya bo'yicha mahalliy klinik protokollarga to'g'ri keladigan bemorlar toifasi;

2. Asosiy qism – Statsionar sharoitda davolash yondashuvlari

(kiritiladigan ma'lumotlar Milliy klinik protokol va standartlardan olinib yoziladi)

Statsionar davo – tuman tibbiyot birlashmalari, shahar klinik shifoxonalari, tug'uruqxonalari, tug'uruq komplekslari, perinatal markazlar, bolalar klinik shifoxonalari, tumanlararo markazlar, Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning viloyat filiallari, oliy ta'lim muassasalari klinikalari, xususiy klinikalarda o'tkaziladi;

- Kirish (qisqa xulosa 0,5 betgacha) Mahalliy klinik protokol va standartlar ishlab chiqilayotgan nozologiyaning tarqalganligi, dolzarbligi yoritilishi kerak;
- Nozologiyaning umumiy ta'rif (ta'rifning yakunida foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);
- Klinik tasnifi etiologiyasi, patogenez, klassifikatsiyasi bosqichlari bo'yicha (foydalanilgan ma'lumotlarni olingan manbasiga havola va giperhavolani kiriting);

Nozologiya bo'yicha statsionar davoga ko'rsatmalar kiritilishi shart!

3. Statsionar sharoitda o'tkaziladigan tekshiruv usullari, uslublari, tibbiy muolajalar yondoshuvlari va tashxislash jarayonlari

- shikoyatlari – (asosiy/qo'shimcha);
- anamnez – epid. anamnez, hayot anamnezi, kasallik anamnezi, bemor shikoyatidagi sindromning paydo bo'lishi va namoyon bo'lish tabiati (asosiy/qo'shimcha);
- kasallikni klinik ko'rinishi, ushbu tashxis/nozologiya bo'yicha ob'yektiv va fizikal tekshiruvlari (asosiy/qo'shimcha);
- laborator tekshiruvlari (asosiy/qo'shimcha), natijalarni sharxi nozologiyaga xos o'zgarishlarni keltiring;
- instrumental tekshiruvlar (asosiy/qo'shimcha) natijalarni sharxi nozologiyaga xos o'zgarishlarni keltiring;
- mutaxassislarning konsultativ maslahati (asosiy/ko'rsatmaga muvofiq) tor soxa mutaxassisining konsultativ ko'ruvining maqsadini yoritib, ushbu nozologiyaga xos bo'lgan mutaxassislar xulosalarini kiriting;
- tashxislash algoritmlari, davolash yondashuvlari bo'yicha algoritmlar, bemor marshrutizatsiyasi bo'yicha algoritmlar.

4. Davolash tartibi (dori vositalarining guruhlar va patentlanmagan nomi yozilishi shart):

A) Nomedikamentoz davo muolajalari:

- Diyeta (asosiy/qo‘shimcha);
- Fitoterapiya (asosiy/qo‘shimcha);
- Fizioterapiya (asosiy/qo‘shimcha);
- Xalq tabobatining boshqa usullari (asosiy/qo‘shimcha).

B) Medikamentoz davo muolajalari:

- peroral dori vositalari (asosiy/qo‘shimcha);
- inyektsion mushak orasiga (asosiy/qo‘shimcha);
- inyektsion vena ichiga (asosiy/qo‘shimcha);
- bo‘g‘im ichiga (asosiy/qo‘shimcha);
- va boshqa usuldagi qo‘llaniladigan dori vositalar (asosiy/qo‘shimcha).

- Asosiy dori-vositalarning ro‘yxati, 100% foydalanish ehtimoli bilan bo‘lgan dori vositalari kiritiladi:

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi va ATX-shifri	Qo‘llash tartibi, dozasi va davomiyligi
-------------------------	---	---

- Qo‘shimcha dori-vositalarning ro‘yxati, foydalanish ehtimoli 100% dan kam bo‘lgan dori vositalar kiritiladi:

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi va ATX-shifri	Qo‘llash tartibi, dozasi va davomiyligi
-------------------------	---	---

Mazkur nozologiyani davolashda tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyoti talab qilinsa, shu muolaja va/yoki amaliyotga ko‘rsatmalar kiritilishi shart!

5. Mazkur nozologiyada o‘tkaziladigan tibbiy muolaja yoki jarrohlik amaliyoti

- tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyoti o‘tkaziladigan tibbiyot muassasasida mahalliy klinik protokolga ma’lumotlar kiritiladi, unda:
- tibbiy muolaja yoki jarrohlik amaliyot nomi;
- tibbiy muolaja yoki jarrohlik amaliyotiga ko‘rsatmalar va qarshiliklar;
- tibbiy muolaja yoki jarrohlik amaliyotini o‘tkazadigan mutaxassisga talablar;
- tibbiy muolaja yoki jarrohlik amaliyotini o‘tkazish tartibi;
- tibbiy muolaja yoki jarrohlik amaliyotini samarali o‘tganligi ko‘rsatkichlari;
- tibbiy muolaja yoki jarrohlik amaliyotida kerak bo‘ladigan qo‘shimcha vositalar.

Tibbiy muolaja va/yoki jarrohlik amaliyotidan so‘ngi davrda bo‘limga yoki statsionardan chiqishga ko‘rsatmalar.

- statsionar davo muolajalarining ijobiy natijasida bemorni uy sharoitidagi kuzatuv uchun tavsiyalarni kiriting.

6. Palliativ davo muolajalari

Bu band asosan palliativ xizmat ko'rsatadigan tibbiyot muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi, unda:

- palliativ davoga ko'rsatma;
- kim va qayerda o'tkazadi;
- palliativ davoni o'tkazish tartibi;
- palliativ davoni o'tkazish bo'yicha yana boshqa talab va tartiblar yoziladi.

7. Foydalanilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar, adabiyotlar.

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operativ muolajalarni taqrizlovchi va ekspertizadan o'tkazuvchi mutaxassislar qo'yiladigan talablar

Xalqaro talablar asosida ishlab chiqiladigan milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar va standart operativ muolajalarni taqrizlash va ekspertizadan o'tkazish muhim o'rinni tutadi. Mazkur jarayonni o'tkazishda taqrizlash va ekspertizadan o'tkazish uchun mutaxassislarni tanlash ulkan mas'uliyatni yuklaydi.

Xalqaro tajribaga muvofiq milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar va standart operativ muolajalarni taqrizlash va ekspertizadan o'tkazish uchun jalb qilinadigan **taqrizchilar va ekspertlar** quyidagi talablarga muvofiq tanlanadi:

- ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalar tibbiyot yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritadigan yetakchi mahalliy yoki horijiy olimlar va amaliyot mutaxassisi sifatida faoliyat yuritishi;
- dalillarga asoslangan tibbiyot sohasida ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi;
- milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalar ishlab chiqish/qayta ko'rib chiqishda ishtirok etgan bo'lishi;
- muayyan mutaxassislik bo'yicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan tibbiyot xodimlari;
- milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalar kiritilgan tavsiyalarning metodologik sifati va shaffofligini baholay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, tibbiyot sohasida milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalarning tibbiyot yo'nalishi bo'yicha kuzatilayotgan yangiliklar va yutuqlar, JSST tavsiyalari to'g'risida bilishi yoki ma'lumotga ega bo'lishi;
- milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalar ishlab chiqish bo'yicha yangilangan metodologiyani bilishi va ular asosida ishlay olishi;
- o'z yo'nalishi bo'yicha horijiy davlatlarning yetakchi olim va amaliyot mutaxassislari bilan uzviy hamkorliklar olib borishi;
- taqrizlash yoki ekspertizadan o'tkazish jarayonida shaxsiy manfaatdan yiroq bo'lishi, muammoli vaziyatlarda sog'liqni saqlash vazirligining vakili bilan bog'lanishi talab etiladi;
- milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalar tasdiqlanib, amaliyotda qo'llanilish jarayonida tibbiy hatoliklar kelib chiqib inson hayoti bilan bog'liq muammolar aniqlangan holatlarda, tibbiyot xodimi bilan birga taqrizchi va ekspertlar teng javobgar bo'lishi to'g'risida xabardor bo'lishi talab etiladi;
- taqrizchi yoki ekspert sifatida jalb qilingan mutaxassislar namunalarda keltirilgan taqriz xulosasi va ekspert xulosasi asosida xulosalarni topshiradi, xulosalarga kiritilgan ma'lumotlar aniq va asoslangan sabablari keltirilgan bo'lishi talab etiladi.

**MILLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDART LOYIHASINI
TAQRIZDAN O'TKAZISH TARTIBINING
NAMUNASI**

XKT-10/11 bo'yicha kodi _____

Sana_____ **202_ yil.**

1. Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarning nomi va turi;
2. Ishlab chiquvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar: ishlab chiquvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi (agar mavjud bo'lsa), ularning mutaxassisligi, ilmiy darajasi va ish joyini ko'rsatgan holda;
3. Taqriz uchun taqdim etilgan milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarning sahifalari va betlari soni;
4. Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarning dolzarbligini qisqacha tavsifi;
5. Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarning foydalanuvchilari: ushbu klinik protokol unda ko'rsatilgan tibbiy yordam ko'rsatish yo'nalishlari va darajalariga mos keladigan mutaxassislarga mo'ljallanganmi;
6. Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalar mazmunini quyidagi mezonlar bo'yicha baholash:
 - Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalar nomining uning mazmuniga muvofiqligi;
 - asosiy klinik tavsiyalar tavsifi;
 - tavsiyalar berishda mantiqiylik va ketma-ketlik;
 - Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalar tavsiyalarining O'zbekiston Respublikasida fan, klinik amaliyot va sog'liqni saqlashni tashkil etishning hozirgi rivojlanish darajasiga muvofiqligi;
 - Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalar mazmunining O'zbekiston Respublikasidagi klinik amaliyot bilan muvofiqligi, adabiyot manbalarining dolzarbligi, dalillarga asoslangan tibbiyot darajalarini ko'rsatilganligi;
 - vizual axborot sifati (chizmalar, diagrammalar, jadvallar, algoritmlar, diagrammalar, grafiklar);
7. Taqrizchining xulosasida ko'rsatilgan mutaxassisliklar yo'nalishi va tibbiy yordam darajasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi klinik amaliyotida Milliy/mahalliy klinik protokolni qo'llash imkoniyati to'g'risidagi asoslantirilgan xulosalar mavjud bo'lsa;
8. Taqrizda quyidagi texnik talablarga rioya qilinishi kerak: Microsoft Word 2003 (2007) formatidagi matn hujjati, format A4, shrift 14, Times New Roman, interval — 1,0; chetlari — chap 2,0, o'ng, yuqori, pastki — 1,5;
9. Taqrizning yakuniga qo'yiladigan talablar: taqrizchining familiyasi, ismi va otasining ismi (agar mavjud bo'lsa) to'liq va imzosi, lavozimi, ish joyi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni va taqrizni yozish sanasi ko'rsatilgan.

**MILLIY/MAHALLIY KLINIK PROTOKOL, STANDART VA STANDART
OPERATIV MUOLAJALARNING LOYIHASINI
EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH TARTIBINING
NAMUNASI**

Ekspert xulosasi		
Ekspert baholashni o‘tkazgan tashkilotning nomi:		
1) Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarning nomi;		
2) Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarni ishlab chiquvchilar (ishchi guruh, muallif va hammualliflar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa), ish joyi, lavozimi, ilmiy unvonlari):		
3) uslubiy mazmuni baholash natijasida amaldagi normativ-huquqiy bazada keltirilgan nizomga muvofiq quyidagi tavsiyalar shakllantirildi.		
I. Kirish qismi: to‘g‘risida aniq fikr bildirilishi kerak;		
Kamchilik va tavsiyalar: aniq va asoslangan ma‘lumotlar keltirilishi kerak, havola yoki giperhavola kiriting		
II. Tashxis va davolash usullari, yondashuvlari va tartiblari: to‘g‘risida aniq fikr bildirilishi kerak;		
Kamchilik va tavsiyalar: aniq va asoslangan ma‘lumotlar keltirilishi kerak, havola yoki giperhavola kiriting		
III. Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarni amalga oshirishning tashkiliy jihatlari: to‘g‘risida aniq fikr bildirilishi kerak;		
Kamchilik va tavsiyalar: aniq va asoslangan ma‘lumotlar keltirilishi kerak, havola yoki giperhavola kiriting		
Dalillarning mustahkamligi uchun Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarga kiritilgan tavsiyalarni baholash: to‘g‘risida aniq fikr bildirilishi kerak;		
Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalardagi ma‘lumot	Dalillar darajasi	Eslatma. Ishonchlilik manbai (havola/giperhavola)
Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarni muhokama qilinganlik darajasi bayonnomalardan ko‘chirmalar sanasi, raqami, o‘tkazilgan taqrizlar – taqrizchilar to‘g‘risida ma‘lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa), ish joyi, lavozimi, ilmiy unvonlari) va taqrizlar xulosasi borasida qisqacha xulosa.		
Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalarga kiritilishi tavsiya etiladigan qo‘shimcha tavsiyalar: tavsiyalarni to‘liq va qayta ko‘rib chiqish yoki yangilashda amalga oshiriladigan harakatlar tushuntirilgan holda yoziladi		
Milliy/mahalliy klinik protokol, standart va standart operativ muolajalardan chiqarib tashlash kerak bo‘lgan tavsiyalar dalil bazasiga ega emas		
Xulosa		
		Yuklab olish (giperhavola)

Imzo:

F.I.Sh., lavozimi, ish joyi:

Sana:

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining
Klinik protokollar va standartlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha
Muvofiqlashtiruvchi Kengash
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Klinik protokollar va standartlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashi (keyingi o‘rinlarda – Muvofiqlashtiruvchi kengash) milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarini ko‘rib chiqish va ularni tasdiqlash, rad etish yoki qayta ishlashga yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun tashkil qilingan doimiy organ.

2. Muvofiqlashtiruvchi kengash o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa tegishli qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlik Hay‘atining qarorlari, Sog‘liqni saqlash vazirining buyruqlari, boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga, shu jumladan, mazkur Nizomga amal qiladi.

II. Muvofiqlashtiruvchi kengash asosiy vazifalari

1. Milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarini ko‘rib chiqadi va tegishli xulosani ilova qilgan holda ularni ma‘qullash, rad etish yoki ishlab chiqish guruhiga qayta ishlashga yuborish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

2. Muvofiqlashtiruvchi kengash yangilangan metodologiyaning 7-ilovasiga muvofiq belgilangan tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha Kengash a‘ziligiga mutaxassislarni jalb qilinadi va sog‘liqni saqlash vazirligining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

3. Muvofiqlashtiruvchi kengash a‘zolari yig‘ilishlarda ishtirok etadi, ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarini sifat va samaradorligi bo‘yicha mos ravishda savollar beradi, qaror qabul qilishda ishtirok etadi.

4. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishida a‘zolarining 75% ishtirok etgan holatda, Kengash yig‘ilishni o‘tkazishi mumkin, ishtirokchilar 75% dan kam bo‘lsa yig‘ilish otkazilmaydi. Kengash yig‘ilishlari onlayn/offlayn tarzda o‘tkazilishi mumkin.

5. Bir vaqtni o‘zida pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi Kengashlaridan bitta nozologiya, holat (kasalliklar guruhi, holatlari) bo‘yicha bir hil bo‘lgan bir nechta milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion

muolajalari taqdim etilgan taqdirda, ulardan birini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi yoki multidistsiplinar yondashuvga asoslangan holda bitta hujjatni qayta ishlab chiqish uchun qaytaradi.

6. Belgilangan muddatda milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalari tibbiy yo'nalishlaridan taqdim etilmagan holatda va/yoki hujjatlarni Kengashga topshirib, yig'ilish kuni prezentatsion ma'lumotni o'qib eshittirmagan holatda, Kengash mazkur hujjatlarni ko'rib chiqishni rad etishi mumkin.

7. Milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarini Kengash yig'ilishida muhokama qilinganidan so'ngi xulosani natijalarni tahlil qilish va Vazirlikning buyrug'ini chiqarish uchun tegishli departament/boshqarma/bo'limlariga taqdim etadi.

III. Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi va uni shakllantirish tartibi

1. Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi Vazirlikning tegishli departament/boshqarma/bo'limlari boshliqlari, Vazirlikning huzuridagi agentliklar, jamg'armalar, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar, oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari rahbar va mutaxassislari, respublikadagi xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarining vakillaridan shakllantiriladi.

1.1. Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi Sog'liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

1.2. Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibiga rais, rais o'rinbosari, mas'ul kotib va Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolari kiradi, ular Kengash yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan tasdiqlanadi.

2. Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi (u bo'lmagan hollarda – rais o'rinbosari):

2.1. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatiga umumiy rahbarlik va rejalashtirish, uning ishini ushbu Nizomga muvofiq tashkil etishni amalga oshiradi.

2.2. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarini o'tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi.

2.3. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarining kun tartibini tasdiqlaydi.

2.4. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarini o'tkazadi.

2.5. Muvofiqlashtiruvchi kengash mas'ul kotibi va a'zolariga ko'rsatmalar beradi.

2.6. Muvofiqlashtiruvchi kengashdan chiqadigan hujjatlarni imzolaydi.

2.7. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati masalalari bo'yicha Vazirlik rahbariyati bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

2.8. Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

2.9. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati yakunlari to'g'risida Vazirlikka har chorakda hisobot taqdim etadi.

3. Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi o'rinbosari:

3.1. Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi nomidan yoki u bo'lmaganda Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarida raislik qiladi.

3.2. Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi nomidan boshqa vazifalarni bajaradi.

3.3. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati masalalari bo'yicha Vazirlikning tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

4. Muvofiqlashtiruvchi kengash mas'ul kotibi:

4.1. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatini hujjatli va texnik jihatdan ta'minlaydi.

4.2. Muvofiqlashtiruvchi kengashning navbatdagi yig'ilishi kun tartibi loyihasini shakllantiradi. Kengashga tibbiyot yonalishlari bo'yicha pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy kengashlari raislaridan prezentatsion taqdimotini qabul qilib oladi.

4.3. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni ta'minlaydi.

4.4. Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkaziladigan sanasi, vaqti va joyi to'g'risida uni o'tkaziladigan kundan kamida 5 kun oldin xabardor qiladi.

4.5. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlari bayonnomalarini tuzadi.

4.6. Muvofiqlashtiruvchi kengash materiallarini tarqatadi.

5. Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolari:

5.1. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarida shaxsan ishtirok etadi.

5.2. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ishtirok eta olmasligi to'g'risida uni o'tkazish sanasidan kamida 3 kun oldin Muvofiqlashtiruvchi kengash raisiga xabar beradi.

5.3. Muvofiqlashtiruvchi kengashning muhokamasi va qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi.

5.4. Manfaatlarni to'qnashuvi yoki manfaatlarni to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar mavjudligi to'g'risida Sog'liqni saqlash vazirligini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

IV. Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolarining huquqlari

1. Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

1.1. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlari kun tartibini shakllantirish bo'yicha takliflar kiritish.

1.2. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarida ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslarning nomzodlarini taklif qilish.

1.3. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha materiallarni oldindan o'rganib chiqish.

1.4. Ko'rib chiqilayotgan, muhokama qilinayotgan tibbiy yo'nalishlar va nozologiyalar bo'yicha klinik protokol va standartlarda savollar paydo bo'lsa, ishlab chiquvchilarga savol bilan murojaat qilish.

V. Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolarining majburiyatlari

1. Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolariga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

1.1. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarini har chorakning 3 oyi 10 sanasigacha o'tkazish.

1.2. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazilgandan keyin 3 kun ichida Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bayonnomasini tasdiqlash va Vazirlikning tegishli departament/boshqarma/bo'limlariga taqdim etish.

1.3. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati yakunlari to'g'risida hisobotni har chorakda Vazirlikka taqdim etish.

VI. Yakunlovchi qoidalar

1. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatining tashkiliy, texnik va axborot ta'minoti Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Ushbu Tartib talablari bajarilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

3. Ushbu Tartibni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

4. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining
Klinik protokollar va standartlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha
MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASH
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1	<i>lavozim bo‘yicha</i>	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari, Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi
2	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi o‘rinbosari
3	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Muvofiqlashtiruvchi kengash mas‘ul kotibi
4	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti boshlig‘i
5	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Fan-ta‘lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i
6	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i
7	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i
8	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Tibbiy xizmat sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i
9	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Moliya-iqtisod boshqarmasi
10	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish bo‘limi boshlig‘i
11	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Xususiy tibbiyot va tibbiy turizmni rivojlantirish bo‘limi
12	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Farmatsevtika sohasini tartibga solish va dori vositalari ehtiyojlarini aniqlash bo‘limi
13	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Farmatsevtika tarmogini rivojlantirish Agentligi
14	<i>lavozim bo‘yicha</i>	O‘zbekiston Respublikasi Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi
15	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari mutaxassislari
16	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Respublika tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari, professor-o‘qituvchilari
17	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi barcha bo‘g‘indagi respublika tibbiyot muassasalari rahbarlari, mutaxassislari
18	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va hududiy sog‘liqni saqlash boshqarmalari rahbarlari
19	<i>lavozim bo‘yicha</i>	Oilaviy shifokorlik va tor soha mutaxassisliklari bo‘yicha amaliyotchi shifokorlar

20	<i>lavozim bo'yicha</i>	O'zbekistondagi Xalqaro tashkilotlarning (JSST, UNICEF, YUNFPA, GIZ va bosh.) vakillari
----	-------------------------	---

Yangi metodologiya asosida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokol va standartlarni xalqaro tavsiyalar/qo'llanmalarga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini baholash bo'yicha
Pediatriya tibbiyot yonalishi bo'yicha kengashida qo'rib chiqiladigan yo'nalishlar ro'yxati

T/r	Nozologiyalar (yo'nalishlar) ro'yxati	Pediatriya kengashi a'zolari (quyida keltirilgan tashkilotlarning ilmiy va/yoki davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari)
1.	Bolalar otorinolarologiyasi	1. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya IATM
2.	Bolalar va o'smirlar OIV/OITS	2. Respublika OITSga qarshi kurash markazi
3.	Bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi	3. Respublika bolalar ortopediya markazi
4.	Bolalar endokrinologiyasi	4. Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya IATM
5.	Allergologiya	5. Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan allergologiya markazi
6.	Bolalar gematologiyasi	6. Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi
7.	Bolalar onkologiyasi	7. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi.
8.	Bolalar onkogematologiyasi	8. Respublika perinatal markazi
9.	Pediatriya	9. Bolalar milliy tibbiyot markazi
10.	Neonatologiya	10. Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya IATM
11.	Bolalar urologiyasi	11. Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar IATM
12.	Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	12. Respublika bolalar kam invaziv va endoskopik xirurgiya ilmiy-amaliy markazi
13.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	13. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
14.	Bolalar nevrologiyasi	14. Toshkent davlat stomatologiya instituti
15.	Bolalar yuqumli kasalliklari, parazitologiyasi, epidemiologiyasi	15. Respublika patologik anatomiya markazi
16.	Bolalar xirurgiyasi	16. Immunologiya va inson genomikasi instituti
17.	Bolalar nefrologiyasi	17. Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi
18.	Bolalar ko'z kasalliklari	18. Xalq tabobati markazi
19.	Bolalar stomatologiyasi	19. Tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlaridan vakil
20.	Patologik anatomiya	20. Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari
21.	Immunologiya	21. Xususiy tibbiyot OTMlaridan vakillar;
22.	Sud-tibbiy ekspertiza	22. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari vakillari;
		23. Hududiy Tibbiyot yo'nalishi bo'yicha Assotsiatsiyalar vakillari;
		24. Shu yo'nalishga mos keladigan Respublika va horijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin.

Yangi metodologiya asosida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokol va standartlarni xalqaro tavsiyalar/qo'llanmalarga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini baholash bo'yicha Jarrohlik tibbiyot yonalishi bo'yicha kengashida qo'rib chiqiladigan yo'nalishlar ro'yxati

T/r	Nozologiyalar (yo'nalishlar) ro'yxati	Jarrohlik kengashi a'zolari (quyida keltirilgan tashkilotlarning ilmiy va/yoki davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari)
1.	Otorinolariningologiya	1. Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolariningologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
2.	Bolalar otorinolariningologiyasi	2. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya IATM
3.	Neyroxirurgiya	3. Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya IATM
4.	Travmatologiya va ortopediya	4. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya IATM
5.	Bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi	5. Respublika bolalar ortopediya markazi
6.	Endokrinologiya	6. Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya IATM
7.	Bolalar endokrinologiyasi	7. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi
8.	Shoshilinch va tez tibbiy yordam	8. Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya IATM
9.	Gematologiya	9. Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi
10.	Bolalar gematologiyasi	10. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya IATM
11.	Onkologiya	11. Toshkent tibbiyot akademiyasi
12.	Bolalar onkologiyasi	12. Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya IATM
13.	Bolalar onkogematologiyasi	13. Bolalar milliy tibbiyot markazi
14.	Urologiya	14. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
15.	Bolalar urologiyasi	15. Bolalar milliy tibbiyot markazi
16.	Anesteziologiya va reanimatologiya	16. Akademik V.Vaxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya IATM
17.	Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	17. Respublika bolalar kam invaziv va endoskopik xirurgiya ilmiy-amaliy markazi
18.	Transplantologiya	18. Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi IATM
19.	Xirurgiya	19. Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi IATM
20.	Bolalar xirurgiyasi	20. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
21.	Nefrologiya	21. Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya IATM
22.	Bolalar nefrologiyasi	22. Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya IATM
23.	Oftalmologiya	23. Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya IATM
24.	Bolalar ko'z kasalliklari	24. Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi IATM
25.	Pulmonologiya	25. Toshkent davlat stomatologiya instituti
26.	Ftiziatriya	26. Respublika patologik anatomiya markazi
27.	Kardiologiya	27. Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi
28.	Akusherlik va ginekologiya	28. Xalq tabobati markazi
29.	Stomatologiya	29. Tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlaridan vakil
30.	Bolalar stomatologiyasi	30. Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari
31.	Patologik anatomiya	31. Xususiy tibbiyot OTMLaridan vakillar;
32.	Sud-tibbiy ekspertiza	32. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari vakillari;

T/r	Nozologiyalar (yo‘nalishlar) ro‘yxati	Jarrohlik kengashi a‘zolari (quyida keltirilgan tashkilotlarning ilmiy va/yoki davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari)
		33. Hududiy Tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha Assotsiatsiyalar vakillari; 34. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika va horijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin.

Yangi metodologiya asosida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokol va standartlarni xalqaro tavsiyalar/qo'llanmalarga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini baholash bo'yicha Terapiya tibbiyot yonalishi bo'yicha kengashida ko'rib chiqiladigan yo'nalishlar ro'yxati

T/r	Nozologiyalar (yo'nalishlar) ro'yxati	Terapiya kengashi a'zolari (quyida keltirilgan tashkilotlarning ilmiy va/yoki davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari)
1.	Otorinolaringologiya	1. Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
2.	Gerontologiya	2. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
3.	OIV/OITS	3. Respublika OITSGa qarshi kurash markazi
4.	Endokrinologiya	4. Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya IATM
5.	Shoshilinch va tez tibbiy yordam	5. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi
6.	Allergologiya	6. Tez tibbiy yordam markazi
7.	Gematologiya	7. Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan allergologiya markazi
8.	Urologiya	8. Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya IATM
9.	Anesteziologiya va reanimatologiya	9. Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya IATM
10.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	10. Toshkent tibbiyot akademiyasi
11.	Nevrologiya	11. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
12.	Yuqumli kasalliklar, parazitologiya, epidemiologiya	12. Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya IATM
13.	Psixiatriya	13. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
14.	Narkologiya	14. Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazit kasalliklar IATM
15.	Nefrologiya	15. Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
16.	Pulmonologiya	16. Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi IATM
17.	Ftiziatriya	17. Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya IATM
18.	Revmatologiya	18. Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya IATM
19.	Kardiologiya	19. Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya IATM
20.	Terapiya (gastroenterologiya)	20. Immunologiya va inson genomikasi instituti
21.	Immunologiya	21. Halq tabobati markazi
22.	Patologik anatomiya	22. Tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlaridan vakil
23.	Sud-tibbiy ekspertiza	23. Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari 24. Xususiy tibbiyot OTMlaridan vakillar; 25. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari vakillari; 26. Hududiy Tibbiyot yo'nalishi bo'yicha Assotsiatsiyalar vakillari; 27. Shu yo'nalishga mos keladigan Respublika va horijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin. 28. Respublika patologik anatomiya markazi 29. Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi

Yangi metodologiya asosida ishlab chiqilgan **milliy/mahalliy klinik protokol va standartlarni xalqaro tavsiyalar/qo‘llanmalarga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini baholash bo‘yicha **Hamshiralik ishi tibbiyot yonalishi bo‘yicha** kengashida ko‘rib chiqiladigan yo‘nalishlar ro‘yxati**

T/r	Mas’ul tashkilot	Hamshiralik ishi kengashi a’zolari
1.	O‘zbekiston Respublikasi Hamshiralalar Assotciatciyasi	Assotsiatsiya rahbari
2.	Respublikaning hududiy sog‘liqni saqlash boshqarmalari	Respublika bosh hamshirasi va Hududiy bosh hamshiralari
3.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning Hududiy filiallari	Bosh hamshiralarii
4.	Respublika tibbiyot markazlari	Bosh hamshiralari
5.	O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	Markaz direktori (direktor o‘rinbosari)
6.	Respublikaning davlat tibbiyot Oliy ta’lim muassasalari	Hamshiralik ishi fakulteti dekanlari
7.	Respublikaning nodavlat tibbiyot Oliy ta’lim muassasalari	Hamshiralik ishi fakulteti dekanlari
8.	Tibbiyot kolledjlari	Kolledj direktori (direktor o‘rinbosari)
9.	Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi tibbiyot texnikumlari	Texnikum direktori (direktor o‘rinbosari)

Birlamchi tibbiy sanitariya yordamida ambulator va statsionat tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlab chiqiladigan **Mahalliy klinik protokollar loyihalarini xalqaro tavsiyalar/qo‘llanmalarga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini baholash bo‘yicha **Mahalliy kengashlarida** qo‘rib chiqiladigan yo‘nalishlar ro‘yxati**

T/r	Nozologiyalar (yo‘nalishlar) ro‘yxati	Mahalliy kengashlar a’zolari
1.	Ambulator tashxislash va davolash Mahalliy klinik protokollari	1. Qoraqalpogiston respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari birinchi o‘rinbosarlari 2. Tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlari 3. Hududiy tibbiyot oliy ta’lim muassasalari 4. Sog‘liqni saqlash boshqarmalari bosh mutaxassislari 5. Xususiy tibbiyot OTMlari; 6. Xususiy poliklinika va diagnostik markazlari, klinikalari; 7. Hududiy Tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha Assotsiatsiyalar; 8. RIIATMlarining viloyat filiallaridan mos ravishdagi mutaxassislarni jalb qilish 9. Shu yo‘nalishga mos keladigan Respublika va horijiy davlatlarning boshqa tibbiyot muassasalarni jalb qilish mumkin.
2.	Tuman darajasidagi muassasalarda statsionar tashxislash va davolash Mahalliy klinik protokollari	

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining
Klinik protokollar va standartlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha
pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy Kengashlar
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Klinik protokollar va standartlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy Kengashlar (keyingi o‘rinlarda – Kengash) Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida tavsiya qilingan AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) - so‘rovnomasidan foydalangan holda milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarini ko‘rib chiqish va ularni tasdiqlash, rad etish yoki qayta ishlashga yuborishda mas‘ul tashkilotlar bilan ishlash uchun tashkil qilingan doimiy organ.

2. Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy Kengashlar o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa tegishli qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlik Hay‘atining qarorlari, Sog‘liqni saqlash vazirining buyruqlari, boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga, shu jumladan, mazkur Nizomga amal qiladi.

**II. Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy Kengashlar
asosiy vazifalari**

1. Milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarini ko‘rib chiqadi va tegishli xulosani Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida tavsiya qilingan AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) - so‘rovnomasidan foydalangan holda xulosalar qabul qiladi, yani ularni ma‘qullash, rad etish yoki ishlab chiqish guruhiga qayta ishlashga yuborish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

2. Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy Kengashlari yangilangan metodologiyaning 76-ilovaiga muvofiq belgilangan tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha Kengashlar a‘zolariga mutaxassislarini jalb qilindi va sog‘liqni saqlash vazirligining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

3. Kengash a‘zolari yig‘ilishlarda ishtirok etadi, yangilangan metodologiyaning 4-,4a,4b va 5-,5a-ilovalariga muvofiq ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarini sifat va samaradorligi bo‘yicha mos ravishda savollar beradi, muhokama qiladi va qaror

qabul qilishda ishtirok etadi. Shuningdek, Kengash raisining topshirig'iga binoan Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida tavsiya qilingan AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) - so'rovnomasidan foydalangan holda baholaydi va hulosalarni o'rnatilgan tartibda Kengash yig'ilishi kotibiga taqdim etadi.

4. Kengashlar yig'ilishida a'zolarining 75% ishtirok etgan holatda, Kengash yig'ilishni o'tkazishi mumkin, ishtirokchilar 75%dan kam bo'lsa yig'ilish otkazilmaydi. Kengash yig'ilishlari onlayn/offlayn tarzda o'tkazilishi mumkin.

5. Bir vaqtni o'zida bir nechta tibbiy yo'nalish ishchi guruhlaridan bitta nozologiya, holat (kasalliklar guruhi, holatlari) bo'yicha bir hil bo'lgan bir nechta milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalari taqdim etilgan taqdirda, shuningdek, Muvofiqlashtiruvchi kengashdan shu kabi holat bo'yicha qayta ishlab chiqish uchun qaytarilganda, ulardan birini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi yoki multidissiplinar yondashuvga asoslangan holda bitta hujjatni qayta ishlab chiqish uchun mas'ul tashkilot va ishchi guruhga qaytaradi.

6. Belgilangan muddatda milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalari mas'ul tashkilot va ishchi guruhlardan taqdim etilmagan holatda va/yoki hujjatlarni Kengashga topshirib, yig'ilish kuni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lganlar ishtirok etmagan holat kuzatilsa, Kengash mazkur xujjatlarni ko'rib chiqishni rad etishi mumkin.

7. Milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operatsion muolajalarni Kengash yig'ilishida muhokama qilinganidan so'ng, ijobiy natijaga ega bo'lganlarini Vazirlikning tegishli departament/boshqarma/bo'limlariga ekspertizadan o'tkazish uchun topshiradi hamda o'rnatilgan tartibda Kengash raisi prezentacion ma'lumot tayyorlagan holda Muvofiqlashtiruvchi kengashda ma'ruza hisobotni o'qib eshittiradi.

8. Mahalliy kengashlar - Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi kengashlaridan farqli ravishda quyidagilarni bajaradi:

- respublikaning hududlaridagi sog'liqni saqlash boshqarmalari qoshida tashkil qilinadi;
- viloyat, shahar/tuman darajasidagi statsionarlar, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar, oilaviy poliklinikalar hamda oilaviy shifokorlik (mahalla tibbiyot) punktlari tomonidan milliy klinik protokol va standartlardan o'ziga mos qismini muvofiqlashtirgan holda mahalliy klinik protokollarni yangilangan metodologiyaning 5, 5a-ilovalariga muvofiqligini Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida tavsiya qilingan AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) - so'rovnomasidan foydalangan holda baholaydi va muhokama qiladi;
- ijobiy natija olgan mahalliy klinik protokollarni hududiy tibbiyot muassasasiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;
- mahalliy kengash olib borayotgan faoliyati yuzasidan hisobotni har chorakda Vazirlikning tegishli departament/boshqarma/bo'limlariga topshiradi.

III. Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy kengash tarkibi va uni shakllantirish tartibi

1. Kengashlar Vazirlik va respublikaning hududiy boshqarmalari huzuridagi agentliklar, jamg'armalar, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar, oliy ta'lim muassasalari, Assotsiatsiyalar, shu jumladan, sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari rahbar va mutaxassislari respublikadagi xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarining vakillaridan tarkibi shakllantiriladi.

1.1. Kengashlar tarkibi Sog'liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

1.2. Kengashlarda rais, rais o'rinbosari, mas'ul kotib va pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy kengashlar a'zolari kiradi, ular Kengash yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan tasdiqlanadi.

2. Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy kengash raisi (u bo'lmagan hollarda – rais o'rinbosari):

2.1. Kengashlar faoliyatiga umumiy rahbarlik va rejalashtirish, uning ishini ushbu Nizomga muvofiq tashkil etishni amalga oshiradi.

2.2. Kengashlar yig'ilishlarini o'tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi.

2.3. Kengashlar yig'ilishlarining kun tartibini tasdiqlaydi.

2.4. Kengashlar yig'ilishlarini o'tkazadi.

2.5. Kengashlar mas'ul kotiblari va a'zolariga ko'rsatmalar beradi.

2.6. Kengashlardan chiqadigan hujjatlarni imzolaydi.

2.7. Kengashlar faoliyati masalalari bo'yicha Vazirlik rahbariyati bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

2.8. Kengashlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

2.9. Kengashlar faoliyati yakunlari to'g'risida Vazirlikka har chorakda hisobot taqdim etadi.

3. Kengashlar raisi o'rinbosarlari:

3.1. Kengashlar raisi nomidan yoki u bo'lmaganda Kengashlar yig'ilishlarida raislik qiladi.

3.2. Kengashlar raisi nomidan boshqa vazifalarni bajaradi.

3.3. Kengashlar faoliyati masalalari bo'yicha Vazirlikning tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

4. Kengashlar mas'ul kotiblari:

4.1. Kengashlar faoliyatini hujjatli va texnik jihatdan ta'minlaydi.

4.2. Kengashlarning navbatdagi yig'ilishi kun tartibi loyahasini shakllantiradi.

4.3. Kengashlar yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni ta'minlaydi.

4.4. Kengashlar a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Kengashlar yig'ilishi o'tkaziladigan sanasi, vaqti va joyi to'g'risida uni o'tkaziladigan kundan kamida 5 kun oldin xabardor qiladi.

4.5. Kengashlar yig'ilishlari bayonnomalarini tuzadi.

4.6. Kengashlar materiallarini tarqatadi.

4.7. Kengashlar rais(rais o'rinbosar)larining topshiriqlari asosida ko'rib chiqish uchun topshirilgan milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operativ muolajalarni kengashlar a'zolariga Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida tavsiya qilingan AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) - so'rovnomasidan foydalangan holda baholash uchun o'rnatilgan tartibda tarqatadi va kengashdan 3-5 kun oldin yig'ib oladi. Shuningdek, kengash a'zolaridan yig'ib olingan baholash xulosalarini umumlashtiradi va kengash yig'ilishida muhokamaga qo'yadi.

4.8. Kengash yakunida ijobiy natija bilan o'tgan xujjatlarni kengashlar raislariga prezentatsion ma'lumotni tayyorlaydi. Kengash natijasida salbiy xulosa olgan xujjatlarni qayta ko'rib chiqish uchun mas'ul tashkilot hamda ishchi guruhlarga qaytaradi.

5. Kengashlar a'zolari:

5.1. Kengashlar yig'ilishlarida shaxsan ishtirok etadi.

5.2. Kengashlar yig'ilishida ishtirok eta olmasligi to'g'risida uni o'tkazish sanasidan kamida 3 kun oldin Kengashlar raisiga xabar beradi.

5.3. Kengashlarning muhokamasi va qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi.

5.4. Kengashlar rais(rais o'rinbosar)larining topshiriqlari asosida ko'rib chiqish uchun topshirilgan milliy/mahalliy klinik protokollar, standartlar, standart operativ muolajalarni Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida tavsiya qilingan AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) - so'rovnomasidan foydalangan holda baholaydi hamda xulosani mazkur uslub bo'yicha hisoblab chiqaradi. Kengashlar yig'ilishigacha 3-5 kun oralig'ida baholangan va hisoblab chiqarilgan xulosalarni kengash kotibiga taqdim qiladi.

5.5. Manfaatlar to'qnashuvi yoki manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar mavjudligi to'g'risida Sog'liqni saqlash vazirligini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

IV. Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy kengashlari a'zolarining huquqlari

1. Kengashlar a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

1.1. Kengashlar yig'ilishlari kun tartibini shakllantirish bo'yicha takliflar kiritish.

1.2. Kengashlar yig'ilishlarida ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslarning nomzodlarini taklif qilish.

1.3. Ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha materiallarni tayyorlashda ishtirok etish.

V. Pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi va Mahalliy kengashlari a‘zolarining majburiyatlari

1. Kengashlar a‘zolariga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

1.1. Kengashlar yig‘ilishlarini har chorakning 3 oyi 10-15 sanasigacha o‘tkazish.

1.2. Kengashlar yig‘ilishi o‘tkazilgandan keyin 3 kun ichida Kengash qarori bayonnomasini tasdiqlash va Vazirlikning tegishli departament/boshqarma/bo‘limlariga taqdim etish.

1.3. Kengashlar faoliyati yakunlari to‘g‘risida hisobotni har chorakda Vazirlikka taqdim etish.

VI. Yakunlovchi qoidalar

1. Kengashlar faoliyatining tashkiliy, texnik va axborot ta‘minoti Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilot hamda Vazirlikning tegishli departament/boshqarma/bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. Ushbu Tartib talablari bajarilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

3. Ushbu Tartibni qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

4. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) so‘rovnomasi

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operativ muolajalarni metodologik sifati va mazmunini baholash – juda muhim omil hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida har bir ishlab chiqilgan KP va standartlar kamida 5 ta Kengash a‘zolari tomonidan baholanadi va baholash instrumenti sifatida AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) so‘rovnomasini qo‘llash tavsiya etiladi.

AGREE so‘rovnomasi ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operativ muolajalar loyihalari mas‘ul tashkilot yig‘ilishida muhokama qilinib, 2 ta taqriz olingandan so‘ng, mos ravishdagi pediatriya, terapiya, jarrohlik va hamshiralik ishi tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha Kengashlar a‘zolari tomonidan o‘tkazilgan onlayn yoki oflayn yig‘ilishida baholash uchun qo‘llaniladi.

AGREE so‘rovnomasini qo‘llash tartibi:

1. Kengash kotibiga ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operativ muolajalar loyihalari, mas‘ul tashkilot yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma, 2 ta taqriz bilan multidissiplinar ishchi guruh raisi tomonidan taqdim etiladi;
2. Kengash raisi va o‘rinbosarlari Kengash yig‘ilishida muhokama qilinadigan tibbiyot yo‘nalishlari va nozologiyalar bo‘yicha ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni AGREE so‘rovnomasi asosida **har birini baholashni o‘tkazish uchun 3-5 nafar Kengash a‘zolariga** taqsimlanadi;
3. Kengash yig‘ilishiga qadar 3-5 nafar Kengash a‘zolari AGREE so‘rovnomasidan foydalanib o‘tkazgan baholashining natijasini tayyorlaydi va Kengash yig‘ilishidan 3-chi kun oldin raisga natijalarni taqdim qiladi;

Har bir milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni bir mutaxassis tomonidan baholash uchun mo‘ljallangan AGREE GRS so‘rovnomasi			
Ilmiy asoslanishi	Baholash mezonlari (to‘ldirilishi mumkin)	Har bir savolga 1 dan 7 gacha ball qo‘yiladi	Izohlar
1. Ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarning uslubiyoti sifati	▪ Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqishda barcha manfaatdor tomonlar jalb qilindimi?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
	▪ Tizimli yondashuv asosida dalillarga asoslangan ma’lumotlar kiritildimi?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6....	

		7 – sifati eng yuqori	
	▪ Mavjud nashrlarga milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar to‘g‘ri keladimi?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
2. Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarning sifati	▪ Klinik tavsiyalar sifatli shakllantirilganmi?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
	▪ Ma‘lum bir tavsiyalarni topish osonmi?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
3. To‘liq ifodalangan-ligi	▪ Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqish jarayoni shaffof bo‘ldimi?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
	▪ Ma‘lumotlar yetarli darajada keltirilganmi?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
4. Klinik jihatdan mos kelishi	▪ Mazkur milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar klinik jihatdan ahamiyatga egami?	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	

	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Mazkur milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar bemorlar uchun to‘g‘ri keladimi? 	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
Jami baholar			
	5. Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarning umumiy sifatini baholang	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
	6. Mazkur milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar amaliyotga tatbiq etilishini tavsiya qilaman	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
	7. Mazkur milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarda keltirilgan tavsiyalar tibbiy amaliyotda foyda keltiradi deb hisoblayman	1 – sifati eng past 2 ... 3 4 – sifati o‘rtacha 5... 6.... 7 – sifati eng yuqori	
		Jami ballar:	

4. Kengash kotibiga baholash o‘tkazgan mutaxassislardan natijalar taqdim qilinadi, individual o‘tkazilgan baholashlar Kengash kotibi tomonidan umumlashiriladi. Umumlashirishda har bir bandning bahosi barcha bandlar bo‘yicha ballar yig‘indisi va maksimal ballning foizini hisoblash yo‘li bilan bajariladi.

Namuna

Agarda 4 nafar ekspert tomonidan quyidagi baholar qo‘yilganda:					
	1 band	2 band	3 band	4 band	Umumiy baho
1 ekspert	5	6	6	6	23
2 ekspert	6	6	7	7	26
3 ekspert	2	4	3	3	12

4 ekspert	3	3	2	3	11
Umumiy baho	16	19	18	19	72
Maksimal qo'yiladigan ballar = 7 * 4 band * 4 ekspert = 112					
Minimal qo'yiladigan ballar = 1 * 4 band * 4 ekspert = 16					

Yakuniy baho quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{\text{Olingan baho} - \text{Minimal qo'yiladigan ballar}}{\text{Maksimal qo'yiladigan ballar} - \text{Minimal qo'yiladigan ballar}}$$

$$\frac{72-16}{112-16} \times 100 = \frac{56}{96} \times 100 = 0,583 \times 100 = 58,3\%$$

Yakuniy baholash mezonlari

Baholashdan olingan yakuniy natija foizda	Olingan natijalarni sharhlash
50%dan past	Qabul qilinmaydi, muhokama ham qilinmaydi
50-75%	Kengash a'zolari tavsiyalariga ko'ra qayta ishlash uchun yuboriladi
75-85%	Kengash a'zolari takliflariga muvofiq to'ldirish talab qilinadi, qisman qabul qilingan deb baholanadi
85-100%	Kengash a'zolarining takliflariga binoan stil, orfografik xatoliklar tuzatilganidan so'ng qabul qilinadi
100%	To'liq mos keladi, qabul qilindi

5. Kengash yig'ilishi kunida Kengash raisi (o'rinbosari) AGREE so'rovnomasi asosida baholashdan o'tkazilgan barcha milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni natijalarini o'qib eshittiradi, savol va javoblar bilan muhokamadan o'tkaziladi;

6. AGREE so'rovnomasi asosida baholash natijalarini umumlashtirilgan xulosalari Kengash a'zolari tomonidan bir ovozda ijobiy qabul qilingan holatda SSVga xulosalar prezentatsion ma'ruza sifatida, hujjatlar to'plami bilan topshiriladi;

- manfiy xulosa olingan holatlar, multidistsiplinar ishchi guruh va ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotga qayta ishlash uchun qaytariladi.

7. Pediatriya, terapiya, jarrohlik va hamshiralik ishi tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha Kengashlar raislari tomonidan SSV qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi Kengashda tasdiqlatish uchun prezentatsion ma'ruzaga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilarni o'zida tutadi:

- kengash faoliyatining muddati ... sanadan ... sanagacha;

- o'tkazilgan kengash yig'ilishlar soni;

- AGREE so'rovnomasi asosida baholash va muhokamadan o'tkazilgan umumiy tibbiyot yo'nalishlari soni, nozologiyalar soni, milliy klinik protokollar soni, milliy tibbiy standartlar soni, standart operativ muolajalar soni, mahalliy klinik protokollar soni;

- ulardan, 100%ni olib tasdiqlash uchun taqdim qilinadigan milliy KPlar, milliy tibbiy standartlar, SOMlar, mahalliy KPlar soni;

- 50% dan kam olganlar soni va ularni keyingi taqdiri;
- 50-75% olganlar soni va ularning keyingi taqdiri;
- SSV qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi Kengashdan tasdiqlashga tavsiya olish uchun taqdim etilayotgan milliy KPlar, milliy tibbiy standartlar, SOMlar, mahalliy KPlar soni.
- Ish jarayonida kelib chiqqan muammolar;
- Muammolarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar.

**Onlayn/offlayn o‘quv-kurslar, seminar, master-klasslar bo‘yicha
kunlik/umumiy(yakuniy) hisobot shakli**

**1. Onlayn/offlayn o‘quv-kurslar, seminarlar o‘tkazilgan sana “__” _____
202__ yil:**

Viloyati nomi _____

Tuman nomi _____

Ishtirokchilar soni _____

Ishtirokchilarni ro‘yxati (ilova qilinadi).

2. Master-klass o‘tkazilgan sana “__” _____ 202__ yil:

Viloyati nomi _____

Tuman nomi _____

Ishtirokchilar soni _____

Ishtirokchilarni ro‘yxati (ilova qilinadi).

3. Ishtirokchilarning ro‘yxati, F.I.Sh.

t/r	F.I.Sh	Ish joyi, lavozimi	Mutaxassisligi	Kontaktlari	Imzo
1					
2					
3					
...					

O'quv-kurslar, seminar va master-klasslar o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan ishchi guruh a'zolari:

F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, kontaktlari:

1. _____

2. _____

3. _____

4. _____.

Sana va imzo_____

**Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni amaliyotga joriy etish samaradorligini monitoring qilish
TARTIBI**

Sogʻliqni saqlash vazirligining tegishli koʻrsatmasiga muvofiq milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni amaliyotga joriy etish jarayonida asosiy masʼuliyat sogʻliqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislarida boʻlib, shuningdek, masʼul tashkilotlar, idoralar, professional tibbiy assotsiatsiyalarining ham masʼuliyati belgilanadi.

Klinik protokollar va standartlarni amaliyotga tatbiq etilishini monitoringi oʻzida ikki maqsadni tutadi:

- Milliy/mahalliy klinik protokollarda belgilangan tavsiyalar hamda standartlarda koʻrsatilgan tibbiy xizmatlar va davolash tadbirlariga rioya qilinganligini baholash;
- Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlarni amaliyotga tatbiq etilgandan soʻng koʻrsatilayotgan tibbiy yordam sifatida kuzatilayotgan oʻzgarishlarni aniqlash.

Monitoringni oʻtkazishda quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tibbiyot xodimlari orasida oʻtkaziladigan soʻrovnomalar anketalar (mazkur tartibning 1-,2- ilovalari);
- klinik protokol va davolash standartini qoʻllash boʻyicha baholash varaqasi(mazkur tartibning 3-ilovalari);
- statistik maʼlumotlar yangilangan metodologiyaning 8-jadvaliga muvofiq olib boriladi.

Amaliyotga joriy qilish rejasi oqilona boshqaruv tamoyillariga asoslanishi kerak:

- tasdiqlangan milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlarni, standart operativ muolajalarni amaliyotga joriy qilishni asosiy maqsad va vazifalarni, yaʼni erishish kerak boʻlgan natijalarni belgilash;
- milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlarni, standart operativ muolajalaridan amaliyotga joriy qilish uchun ustuvor tavsiyalar va asosiy tamoyillarni belgilash;
- tanlab olingan tavsiyalarni qoʻllanilishi kerak boʻlgan maqsadli auditoriya va kontekstni belgilash;
- ijobiy natijalarga erishish uchun harakatlarni rejalashtirgan holda amalga oshirish kerak;
- faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan resurslar — harajatlar, inson resurslari, oʻqitish ehtiyojlari, mablagʻlarni belgilash;
- amalga oshirish muddatlari, shu jumladan, muddatlarga taʼsir qilishi mumkin boʻlgan har qanday toʻsiqlarni belgilash;
- masʼul shaxslar va ishchi guruh aʼzolarini belgilash;
- ehtimoliy yakuniy natijalarni belgilab olish.

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarini amaliyotga joriy etishning maqsadi dalillarga asoslangan maʼlumotlar tamoyillari asosida koʻrsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishdan iborat boʻlib, buning uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

- indikatorlarni ishlab chiqish – milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarida koʻrsatilgan tavsiyalarga muvofiq yordam koʻrsatilganligini baholaydigan koʻrsatkichlar;

- tibbiy yordam sifatini nazorat qilish mezonlari, ya'ni – ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha instrumentlar va strategiyalarni ishlab chiqish hamda monitoring jarayonida ulardan foydalanish.

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni tibbiyot xodimlari tomonidan amaliyotda foydalanishini o'rganish

Milliy/mahalliy klinik protokollar, davolash standartlari va standart operatsion muolajalarni tibbiyot xodimlari tomonidan amaliyotda foydalanishini o'rganishga tayyorgarlik jarayoni 2 ta qadamda amalga oshiriladi.

1-qadam: Monitoring o'tkazishga tayyorgarlik bo'lib, amaliyotga tatbiq qilingan milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarga muvofiq tibbiy xizmat ko'rsatishni o'rganishni boshlashdan oldin amalga oshiriladigan ishlarni qamrab oladi, unda:

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni amaliyotda tibbiyot xodimlari tomonidan foydalanilishini o'rganish uchun mas'ul shaxslar (manfaatdor tomonlar) belgilab olinadi.

Belgilab olingan mas'ullar so'rovnomalar asosida fokus-guruhlar yoki asosiy shaxslar (sog'liqni saqlash tashkilotlari rahbarlari, tor soha mutaxassislari, o'rta tibbiyot xodimlari, bemorlar va h.k.) bilan individual suhbatlar o'tkaziladi .

O'tkazilgan so'rovnomaning natijasi asosida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni amaliyotga joriy etish chora-tadbir rejasini belgilashda muhokamada ishtirok etayotgan turli tomonlarning fikrlarini hisobga olish zarur.

*Mazkur jarayonda so'rovnomadan o'tayotgan shaxslarga bir xil ma'lumot berilishi kerak.

1-qadamda keltirilganlarni amalga oshirish uchun harakatlarni rejalashtirish.

Monitoring o'tkazishda amaliyotga tatbiq etuvchi ishchi guruhlar tarkibini kim a'zo bo'lishi kerakligi hamda qanday mutaxassislar bo'lishini aniqlab olish kerak, ularga quyidagilar kiradi:

- milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlarni amaliyotga tatbiq qilish uchun chora-tadbir rejasini ishlab chiqish guruhi (professional mutaxassislarni tutuvchi respublikaning davolash profilaktika tibbiyot muassasalari vakillari);
- joriy etishni boshqarish guruhi (sog'liqni saqlash tibbiyot muassasalari rahbarlari);
- amaliyotga joriy etadigan guruhlar (bo'lim boshlig'i, mutaxassislar, o'rta tibbiyot xodimlari va boshqalar).

Sog'liqni saqlash vazirligining topshirig'i asosida monitoring o'tkazadigan guruh ish faoliyatini boshlaydi.

Guruh rahbari tomonidan guruh a'zolari bilan birgalikda milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni amaliyotga joriy etishning maqsad va vazifalarini, boshqaruv tamoyillari va umumiy mantiqni tushungan holda, sog'liqni saqlashning ustuvor muammolarini aniqlaydi.

Shuningdek amaliyotga joriy etishda manfaatdor tomonlarning roli va mas'uliyatini belgilanadi, unda monitoring o'tkazish uchun har bir mutaxassis o'zining mas'uliyatini aniq belgilab olishi kerak.

Monitoring o'tkazishdan oldingi trening o'tkazish yoli bilan monitoring jarayoni boshlanadi, ya'ni:

- monitoring o'tkazish muddati SSV tomonidan belgilanadi;
- belgilangan muddatda barcha manfaatdor tomonlar uchun trening o'tkaziladi;
- treningda milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni amaliyotga joriy qilishga jalb qilingan tibbiyot xodimlari birgalikda so'rovnomalar bilan ishlashni o'rganadilar.

Monitoring o'tkazishni boshlashdan oldin, biriktirilgan hududda tanlab olingan tibbiyot muassasalari, ularni milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalar bilan ta'minlanganligi, zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga mos keladigan tibbiy yordam ko'rsatish holati, resurslarning ichki xususiyatlari (shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari, jihozlar va boshqalar) va boshqaruvda yaxshi natijalarga olib keladigan jarayonlarni tavsiflovchi ish usullarini (xizmatlarni tashkil etish) kabi tadbirlarni amalga oshirilishini **monitoring o'tkazuvchi barcha manfaatdor tomonlar bilishlari kerak.**

Shuningdek, barcha manfaatdor tomonlar kutilayotgan natijalar, vazifalar va ish jarayoni to'g'risida xabardor qilish talab etiladi, unda:

- Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan monitoring o'tkazishga jalb qilingan turli guruhlari va darajalari o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish uchun axborot almashinuvini ta'minlash (ijtimoiy tarmoq, elektron pochta va boshqalar);
- ishchi guruh a'zolari va boshqa manfaatdor tomonlar vazifalaridan kelib chiqib almashinadigan ma'lumotlarni aniq va manzilli bo'lishini ta'minlash muhimdir.

2-qadam. Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalari amaliyotga joriy etilishining indikatorlarini ishlab chiqish.

Ishlab chiqilgan milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlari, standart operatsion muolajalardagi tavsiyalarga mos keladigan asosiy indikatorlarni multidistsiplinar ishchi guruh a'zolari manfaatdor tomonlar bilan birgalikda ishlab chiqadi.

Indikatorlarni ishlab chiqishda, indikatorlarning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

- **Natijalarga ta'sir etuvchi indikatorlar:** kattalar, bolalar, umumiy o'lim, yosh bo'yicha o'lim sabablari, ortiqcha va asossiz hospitalizatsiyalar soni va h.q.;
- **Oraliq indikatorlar:** milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajardagi ko'rsatmalarga muvofiq hospitalizatsiya qilish uchun yuborilgan bemorlar soni %, statsionarda o'rtacha davolanish kunlari, bemorlarni davolashda milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajarda ko'rsatilgan tavsiyalarga muvofiq davolanagan bemorlar %, tayinlangan davolash muolajalari va dori vositalari %;
- **Amaliyotga joriy etish indikatorlari:** milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajardagi ko'rsatmalarga muvofiq hospitalizatsiya qilish mezonlari ishlab chiqilganligi, ushbu tavsiyalar bo'yicha o'qitilgan shifokorlar soni, ushbu tavsiyalarga muvofiq dori vositalari va asbob uskunalar sotib olinishi va boshq.

MONITORING JARAYONIDA MA'LUMOTLARNI YIG'ISH VA TAHLILINI O'TKAZISH

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni amaliyotga joriy etish samaradorligini monitoring qilish yoki audit o'tkazish jarayoni sog'liqni saqlash vazirligining topshirig'iga binoan, belgilangan muddatlarda, hududlarga belgilangan ishchi guruhlarni safarbar qilinishi hamda joylarda tibbiyot muassasalaridagi rahbarlar, xodimlardan so'rovnoma o'tkazish, shuningdek, so'rovnomaning tahlil qilish, muammoli holatlarni aniqlash, tibbiy hatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqishni o'zida tutadi. Bu jarayonda statistik ma'lumotlarni shakllantirish va ularni tahlilini o'tkazish ham muhimdir.

Monitoring jarayonining ijobiy tomonlari milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlari, standart operatsion muolajarining bevosita foydalanuvchilari bilan fikr almashish, ularning amaliyotga joriy etilish darajasi to'g'risida tezkor ma'lumotlarga ega bo'lish, ushbu jarayonda sog'liqni saqlash tashkilotlarining faol ishtirokini ta'minlashdan iborat.

Monitoring jarayoniga quyidagilar kiradi:

1. Maqsadli guruhlardan: tibbiyot muassasalari rahbarlari, shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari, bemorlar va boshqalardan anketa so'rovnoma o'tkazish (1-,2-ilovaga muvofiq);
2. Baholash varaqasi asosida baholashni o'tkazish (3-ilovaga muvofiq);
3. Monitoring natijalari hisobotini shakllantirish (yangilangan metodologiyaning 8-jadvaliga muvofiq).

3-qadam. O'tkazilgan monitoring natijalari bo'yicha yig'ma ma'lumotni shakllantirish.

Ishchi guruh tomonidan belgilangan muddatlarda hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalariga ma'lumot uchun, sog'liqni saqlash vazirligining tegishli departament/boshqarma/bo'limlariga - Respublikaning hududlaridagi tibbiyot muassasalarida o'tkazilgan monitoring natijalari to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etiladi.

Monitoring natijalari milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarini amaliyotga tatbiq qilishda aniqlangan qiyinchiliklar va muammolarni bartaraf qilish uchun qayta ko'rib chiqish yoki to'ldirishga takliflar beriladi.

Monitoringda milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajariga muvofiq tibbiy xizmat ko'rsatishda chetlanishlar aniqlansa, monitoring o'tkazayotgan ishchi guruh tomonidan milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajariga muvofiq tibbiy xizmatni ko'rsatish bo'yicha master-klass o'tkaziladi, muassasadagi tibbiyot xodimlarini o'qitish usulida amaliy yo'rdam ko'rsatiladi.

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajari amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha o'tkazilgan monitoring, oraliq hisobotlar va umumlashtirilgan ma'lumotlar Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli departament/boshqarma/bo'limlariga taqdim etiladi.

Monitoring o'tkazishda qo'llanilgan so'rovnoma va baholash varaqasini yuritishda hatoliklar anqlansa ishchi guruh a'zolariga usuldan foydalanish metodologiyasi tushuntiriladi va qayta to'ldirish talab etiladi.

Agarda, topshirilgan hujjatlar talab darajasida yuritilgan bo'lsa, qabul qilinadi, taklif va mulohazalar olinadi.

Elektron sogʻliqni saqlash tizimini joriy etish doirasida Yagona avtomatlashtirilgan sogʻliqni saqlash tizimini yaratilgan hollarda, milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajarini amaliyotga joriy etish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoni yaratilib, barcha maʼlumotlarni elektron tizimga kiritiladi.

Klinik protokollar (KP) va standartlarini (S) amaliyotga tatbiq etilganligini o'rganish yuzasidan tibbiyot muassasalari rahbarlari uchun so'rovnoma ANKETASI

1. Sizning:

a) ish joyingiz _____

b) lavozimingiz _____

2. Sizningcha, ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashda KP va DSning zarurati qanday?

a) yuqori

b) o'rta

3. Tibbiyot muassasingizda KP va S mavjudmi?

a) ha

b) yo'q

4. Tibbiyot muassasingizda har bir shifokor uchun KP va Sdan foydalanish imkoni mavjudmi?

a) ha

b) yo'q

5. Tibbiyot muassasingizda KP va S qanday ko'rinishda tarqatilgan?

a) chop etilgan (kitob) ko'rinishida

b) elektron variant

6. Tibbiyot muassasingizda tibbiyot amaliyotida KP va Sni qo'llash tamoyillari bo'yicha seminar, treninglar o'tkazilganmi?

a) ha

b) yo'q

7. Ushbu yo'nalishda Sizga yordam kerakmi?

a) ha

b) yo'q

8. Ha bo'lsa, qanday shaklda?

a) seminarlar o'tkazish

b) na'munaviy o'quv dasturlari ko'rinishida

v) masofaviy o'qitish ko'rinishida

9. Har kungi shifokor yig'ilishlarida KP va S qo'llanilishi bo'yicha masalalar muhokama qilinadimi?

a) ha

b) yo'q

10. Tibbiyot muassasingizda KP va S joriy etilishi bo'yicha mas'ul shaxs belgilanganmi?

a) ha

b) yo'q

11. KP va Sni joriy etishda qiyinchilik yoki muammolarga duch kelgansizmi?

a) ha

b) yo'q

12. Ha bo'lsa, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aytib o'ting:

13. KP va Sda talab qilinadigan hajmga tibbiyot muassasingiz resurslar bilan ta'minlanganligi to'liq mos keladimi?

a) ha

b) yo'q

14. Yo'q bo'lsa, sababini ko'rsating:

a) tibbiyot muassa jihozlanish normativlariga to'g'ri kelmaydi

b) tibbiyot muassasida zarur bo'lgan dori-vositalar mavjud emas

v) tibbiyot muassasida zarur bo'lgan jihozlar va asbob-uskunalar mavjud emas

g) zarur xodimlar va shtat birliklari yetishmasligi

ye) boshqa sabablar _____

15. Sizningcha, KP va S resurslardan (dori-vositalar, tibbiy jihozlar va h.k.) oqilona foydalanishga hissa qo'shadimi?

a) ha

b) yo'q

**Klinik protokollar (KP) va standartlarini (S) amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tibbiyot
xodimlari uchun so'rovnoma
ANKETASI**

1. Sizning:

a) ish joyingiz _____

b) lavozimingiz _____

2. Tibbiyot amaliyotiga KP va S joriy etilishini qanday baholaysiz?

a) yuqori

b) o'rta

v) past

3. Sizning muassasangizda KP va Sdan foydalanish imkoni mavjudmi?

a) ha

b) yo'q

4. Ha bo'lsa, kamida 5 ta KP va Sning nomini sanab o'ting

5. KP va Sdan foydalanish qulaymi?

a) ha

b) yo'q

6. Yo'q bo'lsa, sababini aytib o'ting?

7. Tibbiyot muassasingizda tibbiyot amaliyotida KP va Sni qo'llash tamoyillari bo'yicha seminar, treninglar o'tkazilganmi?

a) ha

b) yo'q

8. Klinik qarorni qabul qilishda KP va S Sizga yordam beradimi?

a) ha

b) yo'q

9. KP va Sning qanday shaklidan foydalanasiz?

a) qo'llanma shaklida

b) elektron format

v) internet tarmog'idan

Klinik protokol va standartini qo'llash bo'yicha baholash varaqasi

TM _____
(tibbiyot muassasi nomi)

Yakuniy klinik tashxis _____

Yondosh kasalliklar _____

№	Baholash indikatorlari	To'g'ri keladi	To'g'ri kelmaydi	Qisman to'g'ri keladi
1.	Klinik protokol va standartida belgilangan tavsiyalar asosida tashxislash va davolash o'tkazildi	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
2.	Klinik protokol va standartining tavsiyalaridan chetga chiqish	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
	asosli	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
	asossiz	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
3.	Bemorlarni davolashda shifoxonaning ichki (mahalliy: tibbiy yordam ko'rsatish darajasi bo'yicha) klinik protokoli va standartidan foydalanilgan	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
	Boshqa diagnostik va davolash taktikalari qo'llanilgan	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
	Boshqa sabablar (ko'rsatilsin):	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

Tibbiy xatoliklar turlari, ularni aniqlash va ro'yxatga olish TARTIBI

2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadlaridan biriga tibbiy xizmatlar sifati va tibbiy yordam xavfsizligini oshirish – bu tibbiyot tashkilotlarida barcha ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirishga asoslangan sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish kiradi.

Tibbiy faoliyatdagi xatoliklar va tibbiyot xodimlarining noprofessionalligi har yili 70 mingdan ortiq asoratlarga olib keladi va oddiy dori-darmonlar va tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanganda ham o'lim holatlari ro'y beradi, ya'ni bemorni katalkada tashishdagi ehtiyotsiz foydalanishdan tortib, operatsiyalar paytida xatolargacha.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili bemorlarning 0,7% tibbiy xatolardan aziyat chekmoqda. Muammo zamonaviy dunyoda juda dolzarb bo'lib, chunki u nafaqat sog'liqni saqlash sohasiga, balki bemorning ham, shifokorning ham huquqiy jihatiga ta'sir qiladi.

Dunyoning aksariyat davlatlarining fuqarolar salomatligini muhofaza qilishga oid qonun hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham faqat kasbiy hato haqida so'z yuritilgan, lekin uning mazmuni oshkor etilmagan. Bundan tashqari, bugungi kunda professional tibbiy amaliyotda hatoning huquqiy tushunchasi mavjud emas, shuningdek, tibbiy xatoning mazmunini ochib beradigan normalar ham mavjud emas.

Bugungi kunda xalqaro davlatlarda tibbiy xatoliklar borasida turlicha ta'riflar bo'lib, ulardan tez-tez tilga olinadigan ta'riflari quyida keltiriladi:

- **Tibbiy faoliyatdagi xatolik** – shifokorning o'z kasbiy faoliyatida beparvolik, beparvolik tufayli yo'l qo'yilgan hatosi.
- **Tibbiy faoliyatdagi xatolik** – bu shifokorning o'z kasbiy burchlarini bajarishda yo'l qo'ygan hatosi, bu jinoyat yoki huquqbuzarlik belgilarini o'z ichiga olmaydi.
- **Tibbiy faoliyatdagi xatolik** – bu shifokor tomonidan kasallikning noto'g'ri ta'rifi (diagnostik xatolik) yoki shifokorning xatosi natijasida yuzaga kelgan noto'g'ri tibbiy protsedura (operatsiya, dori-darmonlarni buyurish va h.k.).
- **Tibbiy faoliyatdagi xatolik** – shifokorning noto'g'ri harakati (yoki harakatsizligi) bo'lib, uning asosida zamonaviy ilm-fanning nomukammalligi, bilimsizlik yoki mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llay olmaslik.

Tibbiy faoliyatdagi xatoliklarning umumiy turlari

